Pirnazar DAVRONOV

MATEMATIKADAN
MISOL VA MASALALAR YECHISH

3-KITOB



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA
MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

SAMARQAND VILOYATI PEDAGOGLARNI YANGI
METODIKALARGA O‘RGATISH MILLIY MARKAZI

Pirnazar DAVRONOV

MATEMATIKADAN
MISOL VA MASALALAR YECHISH

3-KITOB

“QAMAR MEDIA” NASHRIYOTI
TOSHKENT – 2024

UDK 51(076.1)
KBK 22.1я7
P 46

Pirnazar Davronov. Matematikadan misol va masalalar yechish. Metodik qo‘llanma. 3-kitob. – “Qamar media” nashriyoti. Toshkent – 2023-yil, 208 bet.

Taqrizchilar:

T.Ochilov – O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti “Aniq fanlar” kafedrasi dotsenti.

A.Qudratova – Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi “Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi” kafedrasi dotsenti;

B.Ro‘ziqulov – Samarqand viloyati Nurobod tumani Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limiga qarashli 21-umumiy o‘rta ta’lim maktabi matematika fani o‘qituvchisi.

Mazkur metodik qo‘llanmani yozishdan maqsad, insonlarning ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga ko‘maklashish asosida jamiyat, mamlakat taraqqiyotiga hissa qo‘shishdan iborat. Shu ma’noda maktab matematikasini o‘qib-o‘rganuvchi o‘qituvchilar, ayniqsa repetitorlik qiluvchi hamkasblar, maktabdan keyingi ta’limga tayyorgarlik ko‘ruvchi o‘quvchilar davlat test markazi tomonidan nashr etilgan axborotnomalardagi misol va masalalarni yechishda biror qiyinchlikka duch kelishsa, biz yozgan kitoblarning foydasi tegsa, o‘zimizni qo‘yilgan maqsadimizga erishgan hisoblardik.

ISBN 978-9943-7049-3-0

S O‘ Z B O S H I

Assalomu alaykum muhtaram kitobxon. Sizni muhtaram, - deb atadim. Boisi, Olloh insonni muhtaram va mukarram qilib yaratgan. Bunga barchamiz birdek musharraf bo‘lishimiz uchun shahdu shijoat ko‘rsatmog‘imiz darkor. Men, 1973 - 2018 yillar davomida oily o‘quv yurtlarda faoliyat ko‘rsatdim va doimo talabalarimdan ma’lum qismining yaxshi o‘qimasligidan tashvishlanib yashadim. Sababi, yoshlarimizdan har biri, jonajon Vatanimizning porloq kelajagini yaratishga, uzining hissasini qo‘shadigan insonlar hisoblanadi.

2018-yilning sentabr oyidan boshlab “Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi”da faoliyat ko‘rsatayapman. Shu joyga ishga kelib, talabalarimning yaxshi o‘qimasligi sabablarini bildim.

Markaz rahbarining topshirig‘iga asosan, malaka oshirishga kelgan tinglovchi maktab o‘qituvchilarining o‘zi o‘qitadigan fani bo‘yicha bilimlari 2018-2019-ikki yili davomida o‘rganildi. Afsuski, maktablarning biror o‘quv fani bo‘yicha o‘qituvchilarning o‘zlashtirishlari 50% dan oshmadi. Jahonda o‘qitilishiga eng asosiy e’tibor qaratiladigan matematika fani bo‘yicha, bizning o‘qituvchilar o‘rtach 57 foizi qoniqarsiz natija ko‘rsatishdi. Mamlakat, bu darajadagi o‘qituvchilarning o‘quvchilaridan nimani kutishi mumkin?

Bu salbiy oqibatning bosh sababi, aksariyat o‘qituvchilarning davlatimiz tomonidan chiqarilgan ta’lim to‘g‘risida qabul qilinayotgan qonunlar, farmonlar, qarorlar va

boshqa me’yoriy hujjatlardan behabarligi, o‘qitadigan fani, uni o‘qitish metodikasi, pedagogika, psixologiya fanlari yutuqlarini o‘zlashtirib, ularni kasbiy-shaxsiy faoliyatiga qo‘llash bo‘yicha, o‘z ustida, talab darajasida ishlamasligidan iborat.

Malaka oshirishga kelgan o‘qituvchilarining e’tirof etishlaricha, 50% dan ortiq o‘quvchilar o‘zlarining o‘quv imkoniyatlaridan past darajada o‘qigan holda maktablarni bitirishmoqda.

Men, bunday ma’lumotni bergan o‘qituvchilardan biriga “Aytaylik, sinfingizda 25 nafar o‘quvchi bor, ulardan biri sizning farzahdingiz. 24 nafar o‘quvchi yaxshi o‘qiyapdi, bitta sizning farzandingiz yomon o‘qishiga rozimisiz?”- degan savol bilan murojaat qilishni odat qilganman. Ular keskin ravishda “yo‘q” deb javob berishadi. Shunday ekan, 50% dan ortiq o‘quvchilarni savodsiz qoldirishni qanday baholaysizlar? O‘sha bilimi past bolaning ota-onasi qariganda, o‘zini eplay olmaydigan bu inson ularga qanday ko‘maklashadi? Bu insonning zimmasiga tushadigan mamlakat yukini kim ko‘taradi? kabi savollarimiz, o‘qituvchilarga o‘zining ta’sirini ko‘rsatmoqda, o‘ylantirib qo‘ymoqda. Ularning aksariyat qismi, o‘z ustimizda ishlab, o‘quvchilarni yaxshi o‘qitmasak bo‘lmas ekan,- degan fikrlarga kelishmoqda.

Xalqimizda “Erni er qiladigan ham, qora yer qiladigan ham …”-degan naql bor. Shunga hamohang, mamlakatni yuqori darajada rivojlantiradigan ham, taraqqiyotini susaytiradigan ham o‘qituvchilar hisoblanadi. Chunki, mamlakat taraqqiyoti, undagi yetuk kadrlariga bog‘liq. Bunday kadrlarni esa o‘qituvchilar tayyorlab beradi. Demak, Ona Vatanimizning kelajakdagi

taraqqiyoti, bevosita uning oqituvchilari va murabbiy mutaxassislari kasbiy-shaxsiy faoliyatlarining natijadorligiga bog‘liq.

Repetitorlik qiluvchi o‘qituvchi mustaqil izlanadi, mustaqil o‘rganadi, o‘z ustida tinimsiz ishlaydi. Barcha o‘qituvchilarning oz ustida tizimli ishlashlariga erishmasdan, Vatan taraqqiyotiga erishib bo‘lmaydi.

Hazrat Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf o‘gitlarida aytilishicha, muallimlik eng yuksak farz amali bo‘lib, ustozlar haqqiga avvalo Olloh, farishtalar, barcha osmon va yer egalari, hatto uyasidagi chumoli, suv ostidagi baliqlar ham salovat aytib turishar ekan. Har qanday kasb egasining, ayniqsa o‘qituvchining o‘z kasbiy-shaxsiy faoliyatiga mas’uliyatsizlik bilan yondashishi Olloh oldida katta gunoh, Vatanga xiyonat hisoblanar ekan. Bundan ko‘rinadiki, Ikki dunyo saodatini o‘ylaydigan har bir inson kasbiga sodiq bo‘lmog‘i darkor.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf Ibn Sinoning ilm o‘rganishi tartibi misolida, qadimgi o‘qib-o‘rganish (rejasi)ning 7 bosqichini quyidagicha bayon qilgan: 1) 10 yoshgach madrasada Qur’oni karimni yod olingan; 2) qonun, ya’ni shariat ilmi; 3) hisob (matematika); 4) falsafa; 5) mantiq; 6) tib; 7) tabbiiy fanlarni o‘rganilgan. Ibn Sino matematika ilmini, ko‘mir sotib tirikchiligini o‘tkazadigan olimdan olgan.

Jahonda “Singapur Mo‘jizasi” iborasi ko‘p ishlatiladi. Singapur davlati asoschisi Li Kuan Yuga, siz “Singapur mo‘jizasi”ga qanday erishdingiz, - degan savol ko‘p berilar ekan. Li Kuan Yuning javobi: “Men Singapurda mo‘jiza yaratmadim. Men faqat Vatanim oldidagi burchimni bajardim, xolos. Davlat

byudjetini ta’limga yunaltirdim. Muallimni eng quyi tabaqadan Singapurdagi eng yuqori martabaga ko‘tardim. Davlatdagi “mo‘jiza”larni qilgan insonlar muallimlardir. Ular ilm, axloq, mehnat va haqiqatni sevadigan kamtar avlodni etishtirib chiqardilar. Buning uchun ulardan minnatdormiz”.

Bizning Respublikamiz Prizidenti ham davlat boshiga kelgan kundan boshlab, asosiy e’tiborini ta’lim tizimini tubdan isloh qilishga qaratmoqda. Ta’lim to‘g‘risidagi chiqargan barcha farmonlari, qarorlari, Oliy Majlisga murojaatnomalari, xalq ta’limi xodimlari bilan muloqatlari mazmun mohiyati maktabgacha ta’limni, maktab ta’limini rivojlantirishga, o‘qituvchi va murabbiylarni kasbidan tashqari ishlardan, ortiqcha qog‘ozbozliklardan ozod qilishga, ularning ijtimoiy, iqtisodiy mavqeni oshirishga qaratilgan. Jumladan, O‘zbekiston Republikasi Prezidenti huzurida 2019-yil 23-avgust kuni “Yoshlarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalash va jamiyatda o‘qituvchi mavqeini oshirish” masalalariga bag‘ishlab o‘tkazilgan videoselektr majlisi Bayonida “O‘zbekiston Republikasi Prezidenti Administratsiyasi, Hukumati, barcha darajadagi davlat va xo‘jalik boshqaruv organlari, mahalliy hokimliklar rahbarlarining e’tibori maktab ta’limini rivojlantirish buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatlga aylanishi, ustozlarga yuksak hurmat-ehtirom ko‘rsatish – jamiyatimizda oliy qadriyat darajasiga ko‘tarilishi zarur ekanligi ko‘rsatilsin”.

Joylarda barcha rahbarlar va mutasaddilar “Butut kuchni xalq ichidan olaylik, quchoq ochib maktablarga boraylik” shiori ostida maktab ta’limini rivojlantirishga yunaltirilgan buyuk

umummilliy maqsadga, umumxalq harakatlga ytakchilik qilishi ko‘rsatib o‘tilsin” kabi qator, juda muhim qarorlar o‘z aksini topgan.

Respublikamiz xalqaro baholash tashkilotlariga a’zo bo‘ldi. 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunsh darajasi baholash uchun PIRLS, 4- va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy yunalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholashda TIMSS, 15 yoshli ta’lim oluvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yunalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashda PISA, jahon miqyosida katta e’tibor qaratilayotgan STEAM (S – scitnce (tabiiy fanlar), T – technology (texnologiya), E – engineering (muxandislik san’ati), A – art (ijod), M – mathematics (matematika)) dasturi asosida amalga oshiriladigan bo‘ldi.

Ushbu tashkilotlarning barchasida matematik ta’limga aloxida e’tibor qaratilgan. Bunga hamohang tarzda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4708-son Qarori e’lon qilindi.

Biroq, 2022-yilda Respublikamiz oily o‘quv yurtlariga hujjat topshirgan 1 073 821 abituriyintlardan 51,2 foizi, ya‘ni 550 102 nafarining test natijalari o‘ta afsuslanarli, biz pedagoglar uchun esa uyat bo‘ldi. Ular ko‘rsatgan test natijalari 56,7 ballga ham yitmadi.

Muqaddas kitobimiz Qur’oni Karim “Iqro”, ya’ni o‘qi deb boshlangan bo‘lsa, Payg‘ambarimiz (s.a.v): “Beshikdan qabrgacha ilm izlang”,- deb marhamat qilgan bo‘lsalar, butun

musulmon olamining muallimi Imom Buxoriy (r.a): “Dunyoda ilmdan boshqa najot yuq va bo‘lmagay”,-deb aytgan bo‘lsa, Republikamiz rahbari “O‘qituvchi va murabbiylar biz uchun ibrat namunasi, barcha insoniy fazilatlar timsolidir”, - deb bizlarni ulug‘laydi.

Biz muallim va murabbiylar kitoblarda va davlatimiz rahbari tomonidan shunchalik ulug‘lanar ekanmiz, Ona Vatanimizning porloq kelajagi va avlodlarimizning bizdan rozi bo‘lishlari, faxrlanishlari, ikki dunyomizning saodatli bo‘lishi uchun kasbimizga sodiqlik bilan mehnat qilishimiz zarur.

Men, Davlat test markazi tomonidan 1996-2003 yillarda chop etilgan 89 ta “Axborotnoma” ning 77 tasida matematika fanidan berilgan 5773 ta misol va masalalarni, 2003 yildan so‘ng “Matematika” va “Abiturient” ruknlarida e’lon qilingan misol va masalalarni yechib chiqqanman. Tabiiy-ki, malakalarini oshirishga kelgan maktablar o‘qituvchilarda “70 yoshdan oshgan bobo shuncha ish qilayotgan ekan, men nima qilayapman”,-degan fikrni uyg‘otish, ularni o‘z ustida ishlashga va repetitorlik qilishga yunaltirish maqsadida, yechilgan misol va masalalarimni matematika va fizika yunalishlari tinglovchilariga ko‘rsataman. Ishlarni ko‘rgan, mutaxassisligi qaysi fandan bo‘lishiga qaramasdan, ularni kitob qilib chiqarishimni taklif etishadi, hamma uchun foydali bo‘lishini ta’kidlashadi. Hatto ko‘pchiligi, qo‘lyozmalarimdan nushalar olishmoqdalar.

Hamkasblarimning takliflariga asosan, o‘zim yechgan misol va masalalarimni o‘quv qo‘llanma shakliga nashr etishga kirishdim. Bunda, misol va masalalarning yechimlarini berishda, kitobxonni ko‘proq mustaqil izlanishga, mustaqil fkrlashga,

mustaqil ishlashga yunaltirishni maqsad qilib qo‘ydik, ya’ni o‘quvchi foydalanilgan formulalarni izlab topsin, masala yechilishining oson joylari, o‘quvchining qo‘liga qog‘oz, ruchka olib oxiriga yetkazishi uchun qoldirilgan. Boshqacha aytganda masalalarning yechimlarini berishda “Keys stadi” talablari e’tiborga olindi.

Masalalarni yechishga bunday yondashuv, ta’lim oluvchilarni bilim, ko‘nikma va malakani shakllantirish bilan birga, ularda kompetentli-faoliyatli bo‘lishlarini kuchaytiradi, o‘zluksiz ta’lim olish, ehtiyojlari va qobiliyatlarini rivojlantirish layoqatini hosil qiladi.

Kitob yozishning bosh maqsadi, insonlarning ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga ko‘maklashish asosida jamiyat, mamlakat taraqqiyotiga hissa qo‘shishdan iborat.

“Matematikadan misol va masalalar yechish” nomli 3-kitob, 1999-yilda davlat test markazi tomonidan e’lon qilingan 10 ta axborotnomalarning 568 ta misol va masalalari, javoblar variantlari, yechimlar, to‘g‘ri javiblar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda mundarijadan iborat.

Xulosa qilib aytganda, barchamiz birgalikda Vatanimiz, elimiz manfaati yulida umr bo‘yi o‘quvchi bo‘lib qolaylik, eng muhimi mustaqil izlanib, mustaqil o‘rganib, yangidan yangi g‘oyalarni o‘zlashtiraylik, ularni hayotga tatbiq etishda haqiqiy pragmatik bo‘lib, millatimizning koriga yaraydigan azmu shijoatli, g‘ayratu jasoratli, aqlu zakovatli, jamiyat, davlat va oila oldida o‘zining mas’uliyatini chuqur anglaydigan, erkin fikrlovchi, faol, ilmni, axloqni, mehnatni va haqiqatni sevadigan, kamtar insonlarni o‘qitib tayyorlab beraylik

Pirnazar DAVRONOV

1999-YIL, 1-AXBOROTNOMA

1. $\frac{(16+81)\cdot\left(1+\frac{61}{36}\right):36}{\left[0{,}4+\frac{1}{0{,}(4)}\right]^2}\cdot 0{,}4$ ni hisoblang.

A) 0,4 B) 0,(4) C) 14,4 D) 36 E) $\frac{1}{36}$

Yechilishi: $\frac{(16+81)\cdot\left(1+\frac{61}{36}\right):36}{\left[0{,}4+\frac{1}{0{,}(4)}\right]^2}\cdot 0{,}4=\frac{97\cdot\frac{36+61}{36}\cdot\frac{1}{36}}{\left[\frac{4}{9}+\frac{1}{\frac{4}{9}}\right]^2}\cdot\frac{4}{10}=$

$\frac{\frac{97^2}{36^2}}{\left[\frac{4}{9}+\frac{9}{4}\right]^2}\cdot\frac{2}{5}=\frac{\frac{97^2}{36^2}}{\left[\frac{16+81}{36}\right]^2}\cdot\frac{2}{5}=\frac{2}{5}=0{,}4.$ Javobi: A.

2. $9^{20}-7^{20}$ ayirmaning oxirgi raqamini toping.

A) 0 B) 7 C) 1 D) 3 E) 2

Yechilishi: 1)9^{20} va 7^{20} larning takrorlanish sonlari topiladi;
2) daraja ko‘rsatkichlari takrorlanish soniga bo‘linadi;
3) ikkala holda ham qoldiq nol bo‘lganligi uchun takrorlanish sonlarining oxirgi raqamlari ayriladi. 1) $9;1 => 20:2=10;$
2) $7,9,3,1 => 20:4=5;$ 3) $9^{20}-7^{20}=\cdots 1-$
$-\cdots 1=0.$ Javobi: A.

3. $7+69+671+6673+66675$ ni 6 ga bo‘lishdagi qoldiqni toping.

A) 1 B) 4 C) 3 D) 5 E) 2

Yechilishi: $7+69+671+6673+66675;$
Yig‘indini biror songa bo‘lgandagi qoldiq, qo‘shiluvchilarni shu songa bo‘lishdan chiqqan qoldiqlar yig‘indisini, yana shu songa bo‘lishdan chiqqan qoldiqqateng bo‘ladi.
$1+3+5+1+3=13 => 13 => 13:6=$ $qoldiq$ 1.
Javobi: A.

4. $0{,}8(0{,}2+1)(0{,}2^2+1)(0{,}2^4+1)(0{,}2^8+1)+(5^{-2})^8$ ni hisoblang.

A) 1 B) $0{,}2^{16}$ C) $2\cdot 0{,}2^{16}+1$ D) 2 E)

Yechilishi: $0{,}8(0{,}2+1)(0{,}2^2+1)(0{,}2^4+1)(0{,}2^8++1)+$
$+(5^{-2})^8=\frac{8}{10}\left(\frac{1}{5}+1\right)\left(\frac{1}{5^2}+1\right)\left(\frac{1}{5^4}+1\right)\left(\frac{1}{5^8}++1\right)+\frac{1}{5^{16}}=$
$=\left(1-\frac{1}{5}\right)\left(1+\frac{1}{5}\right)\left(1+\frac{1}{5^2}\right)\left(1+\frac{1}{5^4}\right)\left(1++\frac{1}{5^8}\right)+\frac{1}{5^{16}}=1-$
$-\frac{1}{5^{16}}+\frac{1}{5^{16}}=1.$ Javobi: A.

5. Institutdagi talabalarning 35% ini qizlar tashkil qiladi. Yigitlar qizlardan 252 taga ko‘p. Talabalarning umumiy sonini toping.

A) 840 B) 120 C) 420 D) 460 E) 416

Yechilishi: $x-jami;$ $0{,}35x-qizlar;$
$0{,}35x+252-yigitlar;$
$0{,}35x+0{,}35x+252=x\Rightarrow 0{,}7x+252=x\Rightarrow$
$\Rightarrow 0{,}3x=252\Rightarrow x=840.$ Javobi: A.

6. 520 sonini shunday ikki bo‘lakka bo‘lingki, ulardan birining 80% i ikkinchisining 24% ini tashkil qilsin. Bo‘laklarni kattasini toping.

A) 400 B) 120 C) 420 D) 460 E) 416

Yechilishi: $\begin{cases}x+y=520\\0{,}8x=0{,}24y\end{cases}\Rightarrow\begin{cases}0{,}3y+y=520\\x=0{,}3y\end{cases}\Rightarrow$
$\Rightarrow\begin{cases}1{,}3y=520\\x=0{,}3y\end{cases}\Rightarrow\begin{cases}y=400;\\x=120.\end{cases}$ Javobi: A.

7. $1<|x|<4$ tengsizlikni yeching.

A) $(-\infty;-4)\cup(4;\infty)$ B) $(-4;-1)\cup(1;4)$
C) $(-\infty;-1)\cup(1;\infty)$ D) $(-1;1)$
E) $(-4;4)$

Yechilishi: $1<|x|<4\Rightarrow\Rightarrow\begin{cases}x>1;\\x<-1;\\-4<x<4.\end{cases}$

$(-4;-1) \cup (1;4)$. 

Javobi: B.

8. Agar $\sin\alpha = \frac{\sqrt{3}}{2}$ va $\frac{\pi}{2} < \alpha < \pi$ bo‘lsa, $\frac{|-1+\cos\alpha|+2\cos\alpha}{\left|\frac{tg\alpha}{\sqrt{3}}-0{,}5\right|}$ ni hisoblang.

A) $\frac{1}{3}$ B) 1 C) 3 D) -1 E) -3



Yechilishi: $\sin\alpha = \frac{\sqrt{3}}{2}$; $\frac{\pi}{2} < \alpha < \pi$;

$$\frac{|-1+\cos\alpha|+2\cos\alpha}{\left|\frac{tg\alpha}{\sqrt{3}}-0{,}5\right|} = \frac{|-1+\cos 120^\circ|+2\cos 120^\circ}{\left|\frac{tg120^\circ}{\sqrt{3}}-\frac{1}{2}\right|} =$$

$$= \frac{\left|-1-\frac{1}{2}\right|+2\left(-\frac{1}{2}\right)}{\left|\frac{-\sqrt{3}}{\sqrt{3}}-\frac{1}{2}\right|} = \frac{\frac{3}{2}-1}{\frac{3}{2}} = \frac{\frac{1}{2}}{\frac{3}{2}} = \frac{1}{2}\cdot\frac{2}{3} = \frac{1}{3}.$$ Javobi: A.

9. $\sqrt{11+6\sqrt{2}} + \sqrt{11-6\sqrt{2}}$ ni hisoblang.

A) 6 B) 22 C) $\sqrt{22}$ D) 6,012 E) 5,92

Yechilishi: $\sqrt{11+6\sqrt{2}} + \sqrt{11-6\sqrt{2}} =>$

$$=> \sqrt{11+\sqrt{72}} = \sqrt{\frac{11+\sqrt{121-72}}{2}} + \sqrt{\frac{11-7}{2}} = 3+\sqrt{2};$$

$$\sqrt{11-\sqrt{72}} = 3-\sqrt{2}; \quad \sqrt{11+\sqrt{72}} + \sqrt{11-\sqrt{72}} =$$

$$= 3+\sqrt{2}+3-\sqrt{2} = 6.$$ Javobi: A.

10. $\frac{p-q}{p^3\cdot q^2} - \frac{p+q}{p^2\cdot q^3}$ ni soddalashtiring.

A) $-\frac{p^2+q^2}{p^3q^3}$ B) $\frac{2pq-p^2-q^2}{p^3q^3}$ C) $-\frac{2}{p^3q^2}$

D) $-\frac{2}{p^3q+p^2q^2}$ E) 0

Yechilishi: $\frac{p-q}{p^3\cdot q^2} - \frac{p+q}{p^2\cdot q^3} = \frac{p^4q^4-p^3q^5-p^5q^3-p^4q^4}{p^6q^6} =$

$$= \frac{-p^3q^3(q^2+p^2)}{p^6q^6} = -\frac{p^2+q^2}{p^3q^3}.$$ Javobi: A.

11. $\frac{x^2-y^2}{2xy} : \frac{x+y}{2x}$ ni soddalashtiring.

A) $\frac{x-y}{y}$ B) $\frac{x-y}{y(1+y)}$ C) $\frac{(x-y)^2}{y(x+y)}$ D) $\frac{1}{y}$ E) $\frac{x}{y}$

Yechilishi: $\frac{x^2-y^2}{2xy} : \frac{x+y}{2x} = \frac{(x-y)(x+y)}{2xy} \cdot \frac{2x}{x+y} = \frac{x-y}{y}$.

Javobi: A.

12. $y = \frac{2x-3}{x(x+2)}$ funksiyaning aniqlanish sohasini toping.

A) $(-\infty; -2) \cup (-2; 0) \cup (0; \infty)$ B) $(-\infty; 0) \cup (2; \infty)$

C) $(-\infty; -2) \cup (0; \infty)$ D) $(-\infty; 1{,}5) \cup (1{,}5; \infty)$

E) $(-\infty; \infty)$

Yechilishi: $y = \frac{2x-3}{x(x+2)}$; $D(y) = ?$

$$\begin{cases} 2x-3=0 \\ x(x+2) \neq 0 \end{cases} => \begin{cases} x = \frac{3}{2} \\ x \neq 0 \\ x \neq -2 \end{cases}$$



$D(y) = (-\infty; -2) \cup (-2; 0) \cup (0; +\infty)$. Javobi: A.

13. $y = x|x|$ funksiya uchun qaysi xossa to‘g‘ri?

A) $toq\ funksiya$

B) $juft\ funksiya$

C) $kamayuvchi\ funksiya$

D) $juft\ funksiya\ ham\ emas, toq\ funksiya\ ham\ emas$

E) $Aniqlanish\ sohasi\ musbat\ sonlardan\ iborat$

Yechilishi: $y = x|x| => x = -x => y = -x|-x| = -x|x|$.

Javobi: A.

14. $f\left(\frac{ax-b}{bx-a}\right) = x^{50} + x^{49} + x^{48} + \cdots + x^2 + x + 1$ $(|a| \neq |b|)$ bo‘lsa, $f(1)$ ni hisoblang.

A) 1 B) 2 C) 51 D) 4 E) 5

Yechilishi: $f\left(\frac{ax-b}{bx-a}\right) = x^{50} + x^{49} + x^{48} + \cdots + x^2 + x + 1$ $(|a| \neq |b|)$; $f(1) = ?$

1) $\frac{ax-b}{bx-a}=1 \Rightarrow ax-b=bx-a \Rightarrow ax-bx=$
$=b-a \Rightarrow x(a-b)=b-a \Rightarrow x=\frac{b-a}{a-b} \Rightarrow$
$\Rightarrow \frac{-(a-b)}{a-b}=-1.$
2) $(-1)^{50}+(-1)^{49}+\cdots+(-1)^2+(-1)+1=1.$
Javobi: A.

15. $\left(\frac{1}{\sqrt{a}+\sqrt{b}}-\frac{\sqrt{a}+\sqrt{b}}{a-b}\right)\cdot\frac{a-2\sqrt{a}\sqrt{b}+b}{2\sqrt{b}}$ ni soddalashtiring.

A) $\frac{\sqrt{b}-\sqrt{a}}{\sqrt{a}+\sqrt{b}}$ B) $\frac{\sqrt{a}-\sqrt{b}}{\sqrt{a}+\sqrt{b}}$ C) $\frac{\sqrt{b}+\sqrt{a}}{\sqrt{a}-\sqrt{b}}$ D) $\frac{\sqrt{a}-\sqrt{b}}{a+b}$
E) $\frac{\sqrt{b}-\sqrt{a}}{a-b}$

Yechilishi: $\left(\frac{1}{\sqrt{a}+\sqrt{b}}-\frac{\sqrt{a}+\sqrt{b}}{a-b}\right)\cdot\frac{a-2\sqrt{a}\sqrt{b}+b}{2\sqrt{b}}=$
$=\left(\frac{1}{\sqrt{a}+\sqrt{b}}-\frac{\sqrt{a}+\sqrt{b}}{(\sqrt{a})^2-(\sqrt{b})^2}\right)\cdot\frac{(\sqrt{a})^2-2\sqrt{a}\sqrt{b}+(\sqrt{b})^2}{2\sqrt{b}}=$
$=\frac{\sqrt{a}-\sqrt{b}-\sqrt{a}-\sqrt{b}}{(\sqrt{a}-\sqrt{b})(\sqrt{a}+\sqrt{b})}\cdot\frac{(\sqrt{a}-\sqrt{b})^2}{2\sqrt{b}}=\frac{-2\sqrt{b}}{\sqrt{a}+\sqrt{b}}\cdot\frac{\sqrt{a}-\sqrt{b}}{2\sqrt{b}}=\frac{\sqrt{b}-\sqrt{a}}{\sqrt{a}+\sqrt{b}}.$
Javobi: A.

16. $8(3^2+1)(3^4+1)(3^8+1)\ldots(3^{128}+1)x=3^{256}-1$ tenglamani yeching.

A) 1 B) $\frac{1}{8}$ C) $\frac{1}{2}$ D) -1 E) 2

Yechilishi: $8(3^2+1)(3^4+1)(3^8+1)\ldots(3^{128}+1)x=$
$=3^{256}-1 \Rightarrow (3^2-1)(3^2+1)(3^4+1)(3^8+1)\ldots$
$(3^{128}+1)x=3^{256}-1 \Rightarrow (3^4-1)(3^4+1)(3^8+1)$
$\ldots(3^{128}+1)x=3^{256}-1 \Rightarrow (3^8-1)(3^8+1)\ldots$
$\ldots(3^{128}-1)(3^{128}+1)x=3^{256}-1 \Rightarrow \cdots \Rightarrow$
$\Rightarrow (3^{128}+1)\cdot(3^{128}+1)x=3^{256}-1 \Rightarrow$
$\Rightarrow (3^{256}-1)x=3^{256}-1 \Rightarrow x=\frac{3^{256}-1}{3^{256}-1} \Rightarrow x=1.$
Javobi: A.

17. $\begin{cases} a^2x + 3y = 3 \\ 3x + y = 4 \end{cases}$ tenglamalar sistemasi a ning qanday qiymatlarida yechimga ega emas?

A) ± 3 B) ± 1 C) $\pm\sqrt{3}$ D) 0 E) $\emptyset$

Yechilishi: $\begin{cases} a^2x + 3y = 3 \\ 3x + y = 4 \mid \cdot 3 \end{cases} \Rightarrow -\dfrac{\begin{array}{r} a^2x + 3y = 3 \\ 9x + 3y = 12 \end{array}}{a^2x - 9x = -9} \Rightarrow$

$\Rightarrow x(a^2 - 9) = -9 \Rightarrow x = -\frac{9}{a^2-9} \Rightarrow a = \pm 3.$

Javobi: A.

18. $x^2 + px - 35 = 0$ tenglamaning ildizlaridan biri 7 ga teng. Ikkinchi ildizning va p ning qiymatini toping.

A) -5; -2 B) -5; 2 C) 5; 2 D) 5; -2 E) 5; 1

Yechilishi: $x^2 + px - 35 = 0;\ p = p; q = -35;\ x_1 = 7;$

$\begin{cases} 7 + x_2 = -p \\ 7 \cdot x_2 = -35 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} 7 - 5 = -p \\ x_2 = -5 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} p = -2; \\ x_2 = -5. \end{cases}$

Javobi: A.

19. $\begin{cases} y - x^3 = 0 \\ y = 16x \end{cases}$ tenglamalar sistemasini yeching.

A) $(0; 0), (4; 64), (-4; -64)$ B) $(0; 0), (8; 2), (27; 3)$

C) $\emptyset$ D) $(8; 1), (24; 2), (48; 3)$

E) $(16; 1), (16; 2), (48; 3)$

Yechilishi: $\begin{cases} y - x^3 = 0 \\ y = 16x \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} 16x - x^3 = 0 \\ y = 16x \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} x(16 - x^2) = 0 \\ y = 16x \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x = 0 \\ x^2 = 16 \\ y = 16x \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x = 0 \\ x = \pm 4 \\ y = 16x \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} x_1 = 0 \\ x_2 = -4 \\ x_3 = 4 \\ y = 16x \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x_1 = 0 \Rightarrow y_1 = 0 \\ x_2 = -4 \Rightarrow y_2 = -64 \Rightarrow \\ x_3 = 4 \Rightarrow y_3 = 64 \end{cases}$

$$=> \begin{cases} A(x_1; y_1) = A(0;0) \\ B(x_2; y_2) => B(-4;-64) \\ C(x_3; y_3) => C(4;64) \end{cases}$$ Javobi: A.

20. $\frac{1}{x} > x$ tengsizlikni yeching.

A) $(-\infty;-1) \cup (0;1)$ B) $[0;1)$ C) $(-1;1)$

D) $\emptyset$ E) $(-\infty;1)$

Yechilishi: $\frac{1}{x} > x => 1)\ x \neq 0$

$2)\ x > 0 => 1 > x^2 => |x| < 1 => -1 < x < 1;$

$3)\ x < 0 => 1 < x^2 => |x| > 1 => \begin{cases} x > 1; \\ x < -1; \end{cases}$

$1), 2)\ va\ 3)\ dan\ (-\infty;-1) \cup (0;1).$ Javobi: A.

21. Quyidagi tengsizliklardan qaysilari o‘zaro teng kuchli?

1) $\frac{x-3}{x+1} \geq 0$; 2) $\frac{x-3}{x^2+1} \geq 0$; 3) $\frac{x-3}{x^2} \geq 0$; 4) $x - 3 \geq 0$.

A) 2; 3; 4 B) 1; 2; 4 C) 1; 4 D) $hammasi$ E) 2; 3

Yechilishi: 1) $\frac{x-3}{x+1} \geq 0 => \begin{cases} x = 3; \\ x \neq -1. \end{cases}$ Javobi: A.

22. Arifmetik progressiyada $a_{20} = 0$ va $a_{21} = -41$ bo‘lsa, a_1 ni toping.

A) 779 B) -779 C) 41 D) -41 E) -820

Yechilishi: $\begin{cases} a_{20} = 0 \\ a_{21} = -41 \end{cases} => \begin{array}{r} a_1 + 19d = 0 \\ -\ a_1 + 20d = -41 \\ \hline -d = 41 => d = -41 \end{array} =>$

$=> a_1 = -19d = -19 \cdot (-41) = 779.$ Javobi: A.

23. $\sqrt{5}, 1, \frac{1}{\sqrt{5}}, \ldots$ geometrik progressiyaning yig‘indisini toping.

A) $\frac{5}{\sqrt{5}-1}$ B) $\frac{6\sqrt{5}+5}{5}$ C) $\frac{\sqrt{5}-1}{\sqrt{5}}$ D) 4,16 E) 4,5

Yechilishi: $\sqrt{5}, 1, \frac{1}{\sqrt{5}}, \ldots, cheksiz\ kamayuvchi.$

$b_1 = \sqrt{5};\ q = \frac{1}{\sqrt{5}} => S = \frac{\sqrt{5}}{1-\frac{1}{\sqrt{5}}} = \frac{\sqrt{5}}{\frac{\sqrt{5}-1}{\sqrt{5}}} = \frac{5}{\sqrt{5}-1}.$

Javobi: A.

24. $y = 2 - \cos 2x.$ $y' = ?$

A) $2\sin 2x$ B) $\sin 2x$ C) $4\cos 2x$

D) $-\sin 2x$ E) $-2\sin 2x$

Yechilishi: $y = 2 - \cos 2x \Rightarrow y' = 2\sin 2x.$

Javobi: A.

25. $y_1 = \cos^2 3x$, $y_2 = -\sin^2 3x$ va $y_3 = 2\sin 6x$ funksiyalardan qaysilarining hosilalari teng?

A) $y_1; y_2$ B) $y_1; y_3$ C) $y_2; y_3$ D) $y_1; y_2; y_3$

E) $hosilasi\ tenglari\ yo'q$

Yechilishi: $\begin{cases} y_1 = \cos^2 3x \\ y_2 = -\sin^2 3x \Rightarrow \\ y_3 = 2\sin 6x \end{cases}$

$\Rightarrow \begin{cases} y_1' = -6\cos 3x \sin 3x; \\ y_2' = -6\sin 3x \cos 3x; \\ y_3' = 12\cos 6x. \end{cases}$ Javobi: A.

26. $f(x) = \frac{1}{x^2} - \cos x$ funksiyaning boshlang‘ich funksiyasini toping.

A) $-\frac{1}{x} - \sin x + C$ B) $-\frac{1}{x^3} - \sin x + C$

C) $\frac{1}{x^2} - \sin x + C$ D) $\frac{1}{x} + \sin x + C$

E) $-\frac{1}{x^2} + \sin x + C$

Yechilishi: $f(x) = \frac{1}{x^2} - \cos x = x^{-2} - \cos x;$

$F(x) = \int x^{-2}dx - \int \cos x\, dx = \frac{x^{-2+1}}{-2+1} - \sin x + C =$

$= -\frac{1}{x} - \sin x + C.$ Javobi: A.

27. $\int_0^2 x^3\, dx$ ni hisoblang.

A) 4 B) -4 C) $\frac{16}{3}$ D) 2 E) $\frac{8}{3}$

Yechilishi: $\int_0^2 x^3 dx = \frac{1}{4}x^4|_0^2 = \frac{1}{4}[2^4 - 0^4] = 4.$

Javobi: A.

28. $\left(\frac{1}{\sqrt{2}-1}\right)^{\frac{\log_6 \log_6(\sqrt{2}+1)}{\log_6(\sqrt{2}+1)}}$ ni soddalashtiring.

A) $\log_6(\sqrt{2}+1)$ B) $\log_6(\sqrt{2}-1)$ C) $\frac{1}{\sqrt{2}-1}$

D) $\sqrt{2}+1$ E) 1

Yechilishi: $\left(\frac{1}{\sqrt{2}-1}\right)^{\frac{\log_6 \log_6(\sqrt{2}+1)}{\log_6(\sqrt{2}+1)}} =$

$= \left[\frac{1\cdot(\sqrt{2}+1)}{(\sqrt{2}-1)(\sqrt{2}+1)}\right]^{\frac{\log_6 \log_6(\sqrt{2}+1)}{\log_6(\sqrt{2}+1)}} =$

$= (\sqrt{2}+1)^{\log_{(\sqrt{2}+1)} \log_6(\sqrt{2}+1)} = \log_6(\sqrt{2}+1).$ Javobi: A.

29. $4^{x-4} = 0{,}5$ tenglamani yeching.

A) 3,5 B) 4,5 C) -4,5 D) -3,5 E) $\emptyset$

Yechilishi: $4^{x-4} = 0{,}5 \Rightarrow 2^{2(x-4)} = 2^{-1} \Rightarrow$

$\Rightarrow 2x - 8 = -1 \Rightarrow x = 3{,}5.$ Javobi: A.

30. $\left(\sqrt{6}\right)^{x} \leq \frac{1}{36}$ tengsizlikni yeching.

A) $(-\infty; -4]$ B) $[-4; \infty)$ C) $[-4; 4]$ D) $\emptyset$

E) $(-\infty; 6]$

Yechilishi: $\left(\sqrt{6}\right)^{x} \leq \frac{1}{36} \Rightarrow \sqrt{6^x} \leq \frac{1}{6^2} \Rightarrow 6^{\frac{x}{2}} \leq 6^{-2};$

1) $x < 0 \Rightarrow \frac{x}{2} \leq -2 \Rightarrow x \leq -4 \Rightarrow (-\infty; -4].$

Javobi: A.

31. $\triangle ABC$ va $\angle B = 90°, \angle C = 60°$. BB_1 balandlik 2 ga teng. AB ni toping.

A) 4 B) 2 C) $2\sqrt{3}$ D) $2\sqrt{2}$ E) $\frac{4}{\sqrt{3}}$



Yechilishi: $AB = 4.$

Javobi: A.

32. Aylananing O markazi to‘g‘ri burchakli ABC uchburchakning AC gepotenuzasida yotadi. Uchburchakning katetlari aylanaga urinadi. Agar OC kesmaning uzunligi 4 ga,

C nuqtadan CB katetning aylana bilan urinish nuqtasigacha bo‘lgan masofa 3 ga teng bo‘lsa, CB ni toping.

A) $3+\sqrt{7}$ B) 7 C) 8 D) 6 E) $4+\sqrt{7}$

Yechilishi: $DO^2 = 4^2 - 3^2 = 7 \Rightarrow$

$\Rightarrow DO = \sqrt{7};$

$DO = OE = \sqrt{7} \Rightarrow$

$\Rightarrow CB = CD + DB = 3 + \sqrt{7}.$

Javobi: A.



33. $ABCD$ parallelogrammning perimetri 10 ga teng. ABD uchburchakning perimetri 8 ga teng. BD diagonalning uzunligini toping.

A) 3 B) 4 C) 2 D) 3,5 E) 2,5

Yechilishi:

$$\begin{cases} AB + BC + CD + AD = 10 \\ AB + DB + AD = 8 \\ AD = BC \end{cases} \Rightarrow$$

$\Rightarrow 10 = 2(AB + AD) \Rightarrow AB + AD = 5 \Rightarrow$

$\Rightarrow BD + 5 = 8 \Rightarrow DB = 3.$ Javobi: A.



34. Trapetsiyaning yon tomoni uchta teng qismga bo‘lingan, bo‘linish nuqtalaridan ikkinchi yon tomoniga asosga parallel kesmalar o‘tkazilgan. Trapetsiyaning asoslari 2 va 5 ga teng bo‘lsa, bu kesmalarning uzunliklarini toping.

A) 3; 4 B) 2,5; 3,5 C) 3,5 ;4,5 D) 2,5; 4 E) 3; 4,5

Yechilishi: 1) $AB = \frac{2+CD}{2} \Rightarrow$

$\Rightarrow CD = 2AB - 2;$

2) $CD = \frac{AB+5}{2} = AB = 2CD - 5;$

3) $AB = 2 \cdot (2AB - 2) - 5 \Rightarrow$

$\Rightarrow AB = 4AB - 4 - 5 \Rightarrow 3AB = 9 \Rightarrow AB = 3;$

4) $CD = 2 \cdot AB - 2 = 2 \cdot 3 - 2 = 4.$ Javobi: A.



35. $M_1(1;\ 2), M_2(3;4), M_3(-4;3), M_4(0;5)$ va $M_5(5;-1)$ nuqtalardan qaysi birlari $x^2+y^2=25$ tenglama bilan berilgan aylanada yotadi?

A) M_1, M_3, M_4 B) M_1 C) M_5 D) M_1, M_5
E) $hammasi$

Yechilishi: $M_1(1;2) => 1^2+2^2=25 =>$
$5 \neq 25\ yotmaydi;$
$M_2 => 3^2+4^2=25 => 25=25\ yotadi.$ Javobi: A.

36. Agar $\vec{a}=(-6;8)$ vektor berilgan bo‘lib, $|\lambda\vec{a}|=5$ bo‘lsa, λ ni toping.

A) $\pm\frac{1}{2}$ B) $-\frac{5}{6}$ C) $\frac{5}{8}$ D) $\pm\frac{5}{14}$ E) $\frac{1}{20}$

Yechilishi: $\vec{a}=\{-6;8\};\ |\lambda\vec{a}|=5 =>$
$=> |\lambda\{-6;8\}|=5 => |\{-\lambda 6; 8\lambda\}|=5 =>$
$=> \sqrt{36\lambda^2+64\lambda^2}=5 => |10\lambda|=5 =>$
$=> 10\lambda=\pm 5 => \lambda=\pm\frac{1}{2}.$ Javobi: A.

37. Muntazam ko‘pburchakning tashqi burchagi $36°$ ga teng. Uning nechta tomoni bor?

A) 10 B) 6 C) 8 D) 12 E) 9

Yechilishi: $360°:36°=10.$ Javobi: A.

38. Doiraning yuzi unga ichki chizilgan kvadratning yuzidan necha marta katta?

A) $\frac{\pi}{2}$ B) 2 C) 4 D) π E) 2π

Yechilishi: $AB=a => AC=a\sqrt{2} =>$
$=> R=\frac{a\sqrt{2}}{2};$
$S_{kv}=a^2;$
$S_d=\pi R^2=\frac{1}{2}\pi a^2=\frac{\pi}{2}\cdot a^2.$



Javobi: A.

39. Silindr asosining radiusi ikki marta orttirilsa, uning hajmi necha marta ortadi?

A) 4 B) 2 C) 3 D) 6 E) 5

Yechilishi: $V_1 = \pi R^2 H;\ \ V_2 = \pi(2R)^2 H = 4\pi R^2 H.$
Javobi: A.

40. To‘rtburchakli muntazam kesik piramida asoslarining tomonlari 8 va 2 ga, balandligi 4 ga teng. Uning to‘la sirtini toping.

A) 168 B) 169 C) 168,1
D) 170 E) 171



Yechilishi: $S_T = S_{yon} + S_1 + S_2;$
$h^2 = 4^2 + 3^2 =$
$= 16 + 9 = 25 => h = 5;$
$S_{yon} = 4 \cdot \frac{a+b}{2} \cdot h =$
$= 2 \cdot (2 + 8) \cdot 5 = 100;$
$S_T = 100 + 64 + 4 = 168.$
Javobi: A.

41. $tg\alpha \cdot ctg(\pi + \alpha) + \text{ctg}^2\,\alpha$ ni soddalashtiring.

A) $\frac{1}{\sin^2\alpha}$ B) $\frac{1}{\cos^2\alpha}$ C) $tg\alpha$ D) $\text{tg}^2\,\alpha$ E) 1

Yechilishi: $tg\alpha \cdot ctg(\pi + \alpha) + \text{ctg}^2\,\alpha =$
$= tg\alpha \cdot ctg\alpha + \text{ctg}^2\,\alpha = 1 + \frac{\cos^2\alpha}{\sin^2\alpha} = \frac{1}{\sin^2\alpha}.$
Javobi: A.

42. Quyidagi tengliklardan qaysi biri noto‘g‘ri?

A) $\cos\left(\frac{\pi}{4} - \alpha\right) = \frac{\sqrt{2}}{2}(\cos\alpha - \sin\alpha)$

B) $\sin\left(\frac{\pi}{2} + \alpha\right) = \cos\alpha$

C) $\cos(\alpha - 30°) = \frac{\sqrt{3}}{2}\cos\alpha + \frac{1}{2}\sin\alpha$

D) $tg\left(\frac{\pi}{4} + \alpha\right) = \frac{1+tg\alpha}{1-tg\alpha}$ E) $\cos 75° = \frac{\sqrt{2}(\sqrt{3}-1)}{4}$

Yechilishi: $\cos\left(\frac{\pi}{4} - \alpha\right) = \frac{\sqrt{2}}{2}(\cos\alpha - \sin\alpha) =>$
$=> \cos\frac{\pi}{4}\cos\alpha + \sin\frac{\pi}{4}\sin\alpha = \frac{\sqrt{2}}{2}(\cos\alpha + \sin\alpha).$
Javobi: A.

43. $2\sin x \geq \sqrt{2}$ tengsizlikni yeching.

A) $\frac{\pi}{4}+2\pi n \leq x \leq \frac{3\pi}{4}+2\pi n, n \in Z$

B) $-\frac{5\pi}{4}+2\pi n \leq x \leq \frac{\pi}{4}+2\pi n, n \in Z$

C) $\frac{\pi}{4}+2\pi n \leq x < \frac{3\pi}{4}+2\pi n, n \in Z$

D) $\frac{\pi}{4}+\pi n \leq x \leq \frac{3\pi}{4}+\pi n, n \in Z$

E) $-\frac{5\pi}{4}+\pi n \leq x \leq \frac{\pi}{4}+\pi n, n \in Z$

Yechilishi: $2\sin x \geq \sqrt{2} => \sin x \geq \frac{\sqrt{2}}{2}$;

$\frac{\pi}{2}+\frac{\pi}{4}=\frac{3\pi}{4}$.

$\frac{\pi}{4} \leq x \leq \frac{3\pi}{4} =>$

$=> \frac{\pi}{4}+2\pi n \leq x \leq \frac{3\pi}{4}+2\pi n.$



Javobi: A.

44. $ctg(x+1)\cdot tg(2x-3)=1$ tenglamaning $(\pi;2\pi)$ oraliqdagi yechimini toping.

A) 4 B) 2 C) 3 D) 5 E) $\frac{\pi}{2}+\pi k, k \in Z$

Yechilishi: $ctg(x+1)\cdot tg(2x-3)=1.$

$tg(2x-3)=\frac{1}{ctg(x+1)} =>$

$=> tg(2x-3)=tg(x+1) => 2x-3=x+1 =>$

$=> x=4.$ Javobi: A.

45. Teng yonli trapetsiyaning katta asosi 2,7 ga, yon tomoni 1 ga, ular orasidagi burchak 60º ga teng. Uning kichik asosini toping.

A) 1,7 B) 2,35 C) 1,35 D) $2,7-\sqrt{3}$ E) $2,7-\frac{\sqrt{3}}{2}$

Yechilishi: $x+2y=2,7 =>$

$=> x=2,7-2y.$

$1)\frac{y}{1}=\cos 60° => y=\frac{1}{2};$



2) $x = 2{,}7 - 2 \cdot \frac{1}{2} = 1{,}7$. Javobi: A.

46. $x + y = 1$ tenglama bilan berilgan to‘g‘ri chiziqqa parallel to‘g‘ri chiziqni toping.

A) $2x + 2y + 3 = 0$ B) $y = x - 1$ C) $x - y = 2$

D) $y = x + 1$ E) $y = -\frac{1}{2}x + 1$

Yechilishi: $x + y = 1$; $\frac{A_1}{A_2} = \frac{B_1}{B_2}$;

$2x + 2y + 3 = 0 \Rightarrow \frac{1}{2} = \frac{1}{2}$. Javobi: A.

47. $2y = 2x + 3$ to‘g‘ri chiziqning OX o‘qi bilan hosil qilgan burchagini toping.

A) 45° B) 30° C) 60° D) 75° E) 135°

Yechilishi: $2y = 2x + 3 \Rightarrow y = x + \frac{3}{2} \Rightarrow k = 1 \Rightarrow$

$k = tg\alpha \Rightarrow tg\alpha = 1 \Rightarrow \alpha = 45°$. Javobi: A.

48. $\vec{a}(2; -4)$, $\vec{b}(1; 2), \vec{c}(1; -2)$ va $\vec{d}(-2; -4)$ vektorlardan qaysilari kollinear vektorlar?

A) $\vec{a}, \vec{c}$; $\vec{b}, \vec{d}$ B) $\vec{b}, \vec{c}$ C) $\vec{a}, \vec{d}$ D) $\vec{a}, \vec{b}$

E) $kollinearlari\ yo'q$

Yechilishi: $\vec{a} = \{2; -4\}$; $\vec{b} = \{1; 2\}$; $\vec{c} = \{1; -2\}$;

$\vec{d} = \{-2; -4\}$; 1) $\vec{a} = 2\vec{c}$; 2) $\vec{b} = -2\vec{d}$.

Javobi: A.

49. Shaklda berilganlarga ko‘ra $ADEC$ to‘rtburchakning yuzini toping.

A) 10 B) 6 C) 12 D) 8 E) 7

Yechilishi: $\angle B = \alpha$; $\sin\alpha = \frac{4}{5}$;

$S_{\triangle ABC} = \frac{1}{2} \cdot a \cdot b \cdot \sin\alpha =$

$= \frac{1}{2} \cdot 9 \cdot 5 \cdot \frac{4}{5} = 18$.

$S_{\triangle DEB} = 6$; $S_{\square} = 18 - 6 = 12$.

Javobi: C.



50. $x = \sin 60°, y = \cos(-60°)$ va $z = ctg\frac{31\pi}{6}$ sonlarni kamayish tartibida yozing.

A) $z > x > y$ B) $x > y > z$ C) $y > z > x$

D) $z > y > x$ E) $y > x > z$

Yechilishi:

$$\begin{cases} x = \sin 60° = \frac{\sqrt{3}}{2} \\ y = \cos(-600°) = \cos 600° = \cos(4\pi - 120°) = \\ = \cos 120° = -\frac{1}{2}. \\ z = ctg\frac{31\pi}{6} = ctg930° = ctg(5\pi + 30°) = \\ = ctg30° = \sqrt{3}. \end{cases}$$

$z > x > y$. Javobi: A.

1999-YIL, 2-AXBOROTNOMA

1. $\frac{7{,}4+\frac{13}{17}\cdot 0{,}15\cdot 1\frac{4}{13}\cdot 6\frac{2}{3}}{0{,}2\cdot 5-0{,}16}$ ni hisoblang.

A) 10 B) 8 C) 12 D) 6 E) 11

Yechilishi: $\frac{7{,}4+\frac{13}{17}\cdot 0{,}15\cdot 1\frac{4}{13}\cdot 6\frac{2}{3}}{0{,}2\cdot 5-0{,}16}=\frac{7{,}4+\frac{13}{17}\cdot\frac{3}{20}\cdot\frac{17}{13}\cdot\frac{20}{3}}{1-0{,}16}=\frac{8{,}4}{0{,}84}=$

$=\frac{840}{84}=10.$ Javobi: A.

2. 821 ga qanday eng kichik musbat sonni qo‘shganda, yig‘indi 6 ga qoldiqsiz bo‘linadi?

A) 4 B) 1 C) 5 D) 7 E) 9

Yechilishi: $821 => 8+2+1=11.$ Javobi: B.

3. $3p-3\in N$ son $1;2;3;6;9$ va 18 ga qoldiqsiz bo‘linadi. p ning eng kichik natural qiymatini toping.

A) 14 B) 21 C) 7 D) 5 E) 24

Yechilishi: $3p-3=3(p-1) => p=7.$

Javobi: C.

4. $24;18$ va 30 sonlari eng kichik umumiy karralisining eng katta umumiy bo‘luvchisiga nisbatini toping.

A) 90 B) 72 C) 48 D) 30 E) 60

Yechilishi:

$K(24;18;30)=2^3\cdot 3^2\cdot 5=360;$

$D(24;18;30)=2\cdot 3=6;\ \frac{K}{D}=\frac{360}{6}=60.$ Javobi: E.

5. To‘rtta sonning yig‘indisi 128 ga teng. Agar birinchi va ikkinchi sonning nisbati $2:3$ kabi, ikkinchi va uchinchi sonning nisbati $3:5$ kabi va uchinchi va to‘rtinchi sonning

nisbati 5: 6 kabi bo‘lsa, birinchi va to‘rtinchi sonning yig‘indisini toping.

A) 60 B) 62 C) 66 D) 68 E) 64

Yechilishi:

$$\begin{cases} x+y+z+t=128 \\ \frac{x}{y}=\frac{2}{3} => x=\frac{2}{3}y \\ \frac{y}{z}=\frac{3}{5} => y=\frac{3}{5}z \\ \frac{z}{t}=\frac{5}{6} => z=\frac{5}{6}t \end{cases} => \begin{cases} x+y+z+t=128 \\ x=\frac{2}{3}\cdot\frac{1}{2}\cdot t=\frac{1}{3}t \\ y=\frac{3}{5}\cdot\frac{5}{6}t=\frac{1}{2}t \\ z=\frac{5}{6}t \end{cases} =>$$

$$=> \frac{1}{3}t+\frac{1}{2}t+\frac{5}{6}t+t=128 => 16t=128\cdot 6 =>$$

$$=> t=48. \qquad x+t=\frac{1}{3}\cdot 48+48=64.$$

Javobi: E.

6. It o‘zidan 30 m masofada turgan tulkini quva boshladi. It har sakraganda 2 m, tulki esa 1m masofani o‘tadi. Agar it 2 marta sakraganda, tulki 3 marta sakrasa, it qancha (m) masofada tulkini quvib yetadi?

A) 110 B) 120 C) 116 D) 124 E) 130

Yechilishi: $S_i=v_i\cdot t=4t$

$S_t=v_t\cdot t=3t$

$S_i=S_t+30$

$4t=3t+30 => t=30 => S_i=4\cdot 30=120.$

Javobi: B.

7. Hovuzga 2 ta quvur o‘tkazilgan. Birinchi quvur bo‘sh hovuzni 10 soatda to‘ldiradi, ikkinchisi esa to‘la hovuzni 15 soatda bo‘shatadi. Hovuz bo‘sh bo‘lgan vaqtda ikkala quvur birdaniga ochilsa, hovuz necha soatdan keyin to‘ladi?

A) 25 B) 28 C) 30 D) 32 E) 24

Yechilishi: $\left(\frac{1}{10}-\frac{1}{15}\right)\cdot x=1 \Rightarrow \frac{3-2}{30}x=1 \Rightarrow x=30.$

Javobi: C.

8. Ikki xonali sonning raqamlari yig‘indisi 6 ga teng. Agar bu songa 18 qo‘shilsa, berilgan sonning raqamlari o‘rinlarini almashtirib yozishdan hosil bo‘lgan songa teng son hosil bo‘ladi. Berilgan sonni toping.

A) 15 B) 60 C) 51 D) 24 E) 33

Yechilishi: $\begin{matrix} xy+18=yx \\ x+y=6 \end{matrix} \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} 10x+y+18=10y+x \\ x=6-y \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} 9x+18=9y \\ x=6-y \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} 9(x+2)=9y \\ x=6-y \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x+2=y \\ x=6-y \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} 6-y+2=y \\ x=6-y \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} 2y=8 \\ x=6-y \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} y=4 \\ x=2 \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow xy=24.$ Javobi: D.

9. α va β irratsional sonlar $(\alpha \neq \beta)$, $\alpha+\beta$- ratsional son. Quyidagilardan qaysi biri ratsional son?

A) $\alpha-2\beta$ B) $\alpha^2+2\alpha\beta+\beta^2$ C) $\frac{\alpha-2\beta}{2}$

D) $2\alpha+\beta$ E) $\alpha-3\beta$

Yechilishi: $(\alpha+\beta)^2=\alpha^2+2\alpha\beta+\beta^2.$ Javobi: B.

10. Ikki natural son kvadratlarining o‘rta arifmetigi 10 ga, o‘rta geometrigi esa 8 ga teng. Shu sonlarning yig‘indisini toping.

A) 4 B) 12 C) 9 D) 6 E) 7

Yechilishi: $\begin{cases} \frac{x^2+y^2}{2} = 10 \\ \sqrt{(xy)^2} = 8 \end{cases} =>$

$$=> + \begin{matrix} x^2+y^2 = 20 \\ xy = 8/2 \\ \hline x^2+2xy+y^2 = 36 \end{matrix} => (x+y)^2 = 36 =>$$

$=> x+y = 6.$ Javobi: D.

11. Agar $a = 8$ va $b = 2$ bo‘lsa, $\frac{a^{\frac{3}{2}}-b^{\frac{3}{2}}}{a^{\frac{1}{2}}-b^{\frac{1}{2}}} - \frac{a^{\frac{3}{2}}+b^{\frac{3}{2}}}{a^{\frac{1}{2}}+b^{\frac{1}{2}}}$ ning qiymati nechaga teng bo‘ladi?

A) 10 B) 6 C) 8 D) 12 E) 4

Yechilishi: $a = 8;\ b = 2;$ $\frac{\sqrt{a^3}-\sqrt{b^3}}{\sqrt{a}-\sqrt{b}} - \frac{\sqrt{a^3}+\sqrt{b^3}}{\sqrt{a}+\sqrt{b}} =$

$$= \frac{a^2+\sqrt{a^3b}-\sqrt{ab^3}-b^2-a^2+\sqrt{a^3b}-\sqrt{ab^3}+b^2}{a-b} =$$

$$= \frac{2\sqrt{a^3b}-2\sqrt{ab^3}}{a-b} = \frac{2\sqrt{ab}(a-b)}{a-b} = 8.$$ Javobi: C.

12. $\sqrt{3\sqrt[3]{18}} \cdot \sqrt[6]{96}$ ni hisoblang.

A) 6 B) 18 C) 9 D) 10 E) 4

Yechilishi: $\sqrt{3\sqrt[3]{18}} \cdot \sqrt[6]{96} = \sqrt[6]{27 \cdot 18 \cdot 96} =$

$$= \sqrt[6]{3^3 \cdot 2 \cdot 3^2 \cdot 3 \cdot 2^5} = \sqrt[6]{3^6 \cdot 2^6} = 3 \cdot 2 = 6.$$

Javobi: A.

13. $\sqrt{9+\sqrt{65}} \cdot \sqrt{9-\sqrt{65}}$ 14 dan qanchaga kam?

A) 8 B) 9 C) 10 D) 11 E) 12

Yechilishi: $\sqrt{9+\sqrt{65}} \cdot \sqrt{9-\sqrt{65}} =$

$$= \left(\sqrt{\frac{9+4}{2}} + \sqrt{\frac{9-4}{2}}\right)\left(\sqrt{\frac{13}{2}} - \sqrt{\frac{5}{2}}\right) = \frac{13}{2} - \frac{5}{2} = 4.$$

$14 - 4 = 10.$ Javobi: C.

14. $(x-2)^2-4|x-2|+3=0$ tenglamaning ildizlari ko‘paytmasini toping.

A) 3 B) 15 C) -3 D) -15 E) -9

Yechilishi: $(x-2)^2-4|x-2|+3=0;$

1) $x-2>0 \Rightarrow x^2-4x+4-4x+8+3=0 \Rightarrow$

$\Rightarrow x^2-8x+15=0 \Rightarrow \begin{cases} x_1=3 \\ x_2=5 \end{cases} \Rightarrow x_1\cdot x_2=15.$

2) $x-2<0 \Rightarrow x^2-4x+4+4x-8+3=0 \Rightarrow$

$\Rightarrow x^2-1=0 \Rightarrow x^2=1 \Rightarrow x_{3,4}=\pm 1 \Rightarrow$

$\Rightarrow x_3\cdot x_4=1\cdot(-1)=-1.$

$x_1\cdot x_2\cdot x_3\cdot x_4=3\cdot 5\cdot(-1)\cdot 1=-15.$ Javobi: D.

15. $x^4=3x^2-2x$ tenglamaning eng katta va eng kichik ildizlari yig‘indisini toping.

A) 3 B) -3 C) 1 D) -1 E) -2

Yechilishi: $x^4-3x^2+2x=0 \Rightarrow$

$\Rightarrow x^4-2x^2+1-x^2+2x-1=0 \Rightarrow$

$\Rightarrow x^4-2x^2+1-(x^2-2x+1)=0 \Rightarrow$

$\Rightarrow (x^2-1)^2-(x-1)^2=0 \Rightarrow$

$\Rightarrow [(x-1)(x+1)]^2-(x-1)^2=0 \Rightarrow$

$\Rightarrow (x-1)^2(x+1)^2-(x-1)^2=0 \Rightarrow$

$\Rightarrow (x-1)^2[(x+1)^2-1] \Rightarrow \begin{cases} (x-1)^2=0 \\ (x+1)^2-1=0 \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} x-1=0 \\ x+1=\pm 1 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x=1; \\ x=0; \\ x=-2. \end{cases}$ Javobi: D.

16. x_1 va x_2 $x^2-px+p-1=0$ tenglamaning ildizlari. p ning qanday qiymatida $x_1^2+x_2^2$ yig‘indi eng kichik qiymatni qabul qiladi?

A) 2 B) -2 C) 1 D) -1 E) 3

Yechilishi: $x^2 - px + p - 1 = 0 =>$

$=> p = -p; q = p - 1.$

$\begin{cases} x_1 + x_2 = p \\ x_1 \cdot x_2 = p - 1 \end{cases} => \begin{cases} x_1^2 + x_2^2 + 2x_1x_2 = p^2 \\ x_1x_2 = p - 1 \end{cases} =>$

$=> x_1^2 + x_2^2 + 2(p-1) = p^2 =>$

$=> x_1^2 + x_2^2 = p^2 - 2p + 2 => p^2 - 2p + 1 + 1 =$

$=> (p-1)^2 + 1.$ Javobi: C.

17. a ning qanday qiymatida $\begin{cases} 2x + ay = 2 \\ ax + 2y = 3 \end{cases}$ tenglamalar sistemasi yechi,ga ega bo‘lmaydi?

A) 3 B) ± 3 C) 4 D) ± 2 E) -4

Yechilishi: $\begin{cases} 2x + ay = 2/a \\ ax + 2y = 3/2 \end{cases} =>$

$$=> -\begin{array}{r} 2ax + a^2y = 2a \\ 2ax + 4y = 6 \\ \hline a^2y - 4y = 2a - 6 \end{array} => (a^2 - 4)y = 2a - 6 =>$$

$=> y = \frac{2a-6}{a^2-4} => a = \pm 2.$ Javobi: D.

18. k ning qanday eng katta butun qiymatida $kz^2 + 2(k-12)z + 2 = 0$ tenglama yechimga ega bo‘lmaydi?

A) 16 B) 18 C) 20 D) 17 E) 21

Yechilishi: $kz^2 + 2(k-12)z + 2 = 0;$

$D < 0 => [2(k-12)]^2 - 4k \cdot 2 < 0 =>$

$=> 4(k-12)^2 - 8k < 0 => (k-12)^2 - 2k < 0 =>$

$=> k^2 - 24k + 144 - 2k < 0 =>$

$k^2 - 26k + 144 < 0 =>$

$k_{1,2} = 13 \pm \sqrt{169 - 144} = 13 \pm 5 => \begin{cases} k_1 = 8 \\ k_2 = 18 \end{cases} =>$

$=> k \in (8; 18) => k = 17.$ Javobi: D.

19. $\sqrt{x^2 - 3x + 5} + x^2 = 3x + 7$ tenglamaning ildizlari yig‘indisini toping.

A) 4 B) -3 C) 3 D) -4 E) -5

Javobi: D.

Yechilishi: $\sqrt{x^2 - 3x + 5} + x^2 = 3x + 7;$

1) $\sqrt{x^2 - 3x + 5} + x^2 - 3x + 5 = 12;$

$\sqrt{x^2 - 3x + 5} = z;\ z^2 + z - 12 = 0 =>$

$=> z_{1,2} = -\frac{1}{2} \pm \sqrt{\frac{1}{4} + 12} = -\frac{1}{2} \pm \frac{7}{2} => \begin{cases} z_1 = -4; \\ z_2 = 3. \end{cases}$

2) $\sqrt{x^2 - 3x + 5} \neq -4;$

3) $\sqrt{x^2 - 3x + 5} = 3 => x^2 - 3x - 4 = 0 =>$

$=> x_{1,2} = \frac{3}{2} \pm \sqrt{\frac{9}{4} + 4} = \frac{3}{2} \pm \frac{5}{2} => \begin{cases} x_1 = -1 \\ x_2 = 4 \end{cases} =>$

$=> x_1 + x_2 = -1 + 4 = 3.$ Javobi: C.

20. $\sqrt{x^2 - 6x + 9} < 3$ tengsizlik nechta butun yechimga ega?

A) 4 B) 6 C) 7 D) 8 E) 5

Yechilishi: $\sqrt{x^2 - 6x + 9} < 3 =>$

$=> \begin{cases} x^2 - 6x + 9 \geq 0 \\ x^2 - 6x + 9 < 9 \end{cases} => \begin{cases} x \neq 3 \\ x^2 - 6x < 0 \end{cases} =>$

$=> x(x - 6) < 0 => (0; 6).$ U holda $x = 1,2,4,5.$

Javobi: A.

21. $(x - a)(x - b) \leq 0$ tengsizlikning yechimlaer to‘plami [2; 6] oraliqdan iborat. ab ning qiymatini toping.

A) 10 B) 11 C) 13 D) 12 E) 8

Yechilishi: $(x-a)(x-b) \le 0 \Rightarrow \begin{cases} x=a \\ x=b \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} a=2 \\ b=6 \end{cases} \Rightarrow a \cdot b = 12.$ Javobi: D.

22. $y = x^2$ va $y = |x|$ funksiyalar grafiklarining OX o‘qida yotmaydigan kesishish nuqtalari orasidagi masofani toping.

A) 2 B) 2,5 C) 2,3 D) 1,5 E) 1,8

Yechilishi: $y = x^2;\ \ y = |x|.$

$A(1;1), \qquad B(-1;1).$

$|AB| = \sqrt{(x_2-x_1)^2+(y_2-y_1)^2} =$

$= \sqrt{(-1-1)^2+(1-1)^2} = 2.$ Javobi: A.

23. Arifmetik progressiyaning hadlari 19 ta. Uning o‘rta hadi 21 ga teng. Shu progressiyaning hadlari yig‘indisini toping.

A) 398 B) 399 C) 400 D) 384 E) 392

Yechilishi: $n = 19.$

$\frac{a_1+a_{19}}{2} = 21 \Rightarrow a_1 + a_{19} = \ = 2 \cdot 21.$

$S_{19} = \frac{2 \cdot 21}{2} \cdot 19 = 399.$ Javobi: B.

24. Ishorasi almashinuvchi geometrik progressiyaning birinchi hadi 2 ga, uchinchi hadi 8 ga teng. Shu progressiyaning dastlabki oltita hadi yig‘indisini toping.

A) 20 B) -20 C) -42

D) 42 E) -64



Yechilishi: $b_1 = 2;\ \ b_3 = 8;\ \ \ S_6 = ?$

$b_3 = b_1 \cdot q^2 \Rightarrow 8 = 2q^2 \Rightarrow$

$\Rightarrow q^2 = 4 \Rightarrow q = \pm 2 \Rightarrow q = -2;$

$S_6 = \frac{b_1(q^6-1)}{q-1} = \frac{2[(-2)^6-1]}{-2-1} = \frac{2 \cdot 63}{-3} = -42.$ Javobi: C.

25. $m = \arcsin\frac{\sqrt{3}}{2}, n = \arccos\left(-\frac{1}{2}\right)$ va $p = arctg1$ sonlarni kamayish tartibida joylashtiring.

A) $m > p > n$ B) $m > n > p$

C) $n > m > p$ D) $p > n > m$

E) $p > m > n$

Yechilishi: $\begin{cases} m = \arcsin\frac{\sqrt{3}}{2} = 60° \\ n = \arccos\left(-\frac{1}{2}\right) = 120° \\ p = arctg1 = 45° \end{cases} => p < m < n.$

Javobi: C.

26. $y = \sin\frac{x}{2}$ funksiya eng kichik musbat davrining $y = \cos 8x$ funksiya eng kichik musbat davriga nisbatini toping.

A) 12 B) 14 C) 10 D) 18 E) 16

Yechilishi: 1) $y = \sin\frac{1}{2}x => \frac{2\pi}{\frac{1}{2}} = 4\pi.$

2) $y = \cos 8x => \frac{2\pi}{8} => \frac{\pi}{4}.$

3) $4\pi : \frac{\pi}{4} = 4\pi \cdot \frac{4}{\pi} = 16.$ Javobi: E.

27. $\frac{\cos^2 x + \cos x}{2\cos^2\frac{x}{2}} + 1$ ni soddalashtiring.

A) $2\sin^2\frac{x}{2}$ B) $-2\sin^2\frac{x}{2}$ C) $2\cos\frac{x}{2}$

D) $-2\cos^2\frac{x}{2}$ E) $2\cos^2\frac{x}{2}$

Yechilishi: $\frac{\cos^2 x - \cos x}{2\cos^2\frac{x}{2}} + 1 = \frac{\cos x(1+\cos x)}{2\cdot\frac{1}{2}(1+\cos x)} + 1 = \cos x +$

$+\sin^2\frac{x}{2} + \cos^2\frac{x}{2} = 2\cos^2\frac{x}{2}.$

$\boxed{\cos x = \cos 2 \cdot \frac{x}{2} = \cos^2 \frac{x}{2} - \sin^2 \frac{x}{2}}$ Javobi: E.

28. $\frac{1}{1+\text{tg}^2\, x} = \frac{1}{1+\text{ctg}^2\, x}$ tenglamani yeching.

A) $\pi + 2\pi k, k \in Z$ B) $\frac{\pi}{4} + \frac{\pi k}{2}, k \in Z$

C) $2\pi k, k \in Z$ D) $\emptyset$ E) $\pi k, k \in Z$

Yechilishi: $\frac{1}{1+\text{tg}^2\, x} = \frac{1}{1+\text{ctg}^2\, x} \Rightarrow \frac{1}{\frac{1}{\cos^2 x}} = \frac{1}{\frac{1}{\sin^2 x}} \Rightarrow$

$\Rightarrow \cos^2 x - \sin^2 x = 0 \Rightarrow \cos 2x = 0 \Rightarrow$

$\Rightarrow x = \frac{\pi}{4} + \frac{\pi}{2} k.$ Javobi: B.

29. $|1 + \sin x| \leq \frac{1}{2}$ tengsizlikning $[0; 2\pi]$ oraliqdagi eng katta va eng kichim yechimlari ayirmasini toping.

A) π B) $1{,}5\pi$ C) $\frac{2\pi}{3}$ D) $1{,}2\pi$ E) $\frac{3\pi}{4}$

Yechilishi: $|1 + \sin x| \leq \frac{1}{2} \Rightarrow -\frac{1}{2} \leq 1 + \sin x \leq \frac{1}{2} \Rightarrow$

$\Rightarrow -\frac{1}{2} - 1 \leq \sin x \leq \frac{1}{2} - 1 \Rightarrow -\frac{3}{2} \leq \sin x \leq -\frac{1}{2} \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} \sin x \geq -\frac{3}{2} \\ \sin x \leq -\frac{1}{2} \end{cases} \Rightarrow \frac{7\pi}{6} \leq x \leq \frac{11\pi}{6}.$



$\frac{11\pi}{6} - \frac{7\pi}{6} = \frac{4\pi}{6} = \frac{2\pi}{3}.$ Javobi: C.

30. Quyida keltirilgan tengsizliklardan qaysi biri to‘g‘ri?

1) $\log_{\frac{1}{2}} \frac{b^4+b^2}{b^2} > 0$

2) $\log_3 8 + \log_3 2 > 4$

3) $\log_4 a^2 < \frac{\log_2 a^2}{2}$

4) $\log_5 10 - \log_5 2 > 1$

A) 1 B) 2 C) 3 D) 4 E) *hech qaysisi to′g′ri emas*

Yechilishi: 1) $\log_{\frac{1}{2}} \frac{b^4+b^2}{b^2} = \log_{\frac{1}{2}} \frac{b^2(b^2+1)}{b^2} =$

$= \log_{\frac{1}{2}}(b^2+1) < 0;$

2) $\log_3 8 + \log_3 2 = \log_3 8 \cdot 2 = \log_3 16 = \log_3 2^4 =$

$= 4\log_3 2 < 4.$

3) $\log_4 a^2 = \log_{2^2} a^2 = \frac{\log_2 a^2}{2}.$

4) $\log_5 10 - \log_5 2 = \log_5 \frac{10}{2} = \log_5 5 = 1.$ Javobi: E.

31. $100^{\frac{1}{2}\lg 27 - \lg 3} \cdot 10$ ni hisoblang.

A) 20 B) 40 C) 30 D) 10 E) 50

Yechilishi: $100^{\frac{1}{2}\lg 27 - \lg 3} \cdot 10 = \frac{100^{\frac{1}{2}\lg 27}}{100^{\lg 3}} \cdot 10 =$

$= \frac{10^{lg27}}{10^{lg3^2}} \cdot 10 = \frac{27}{9} \cdot 10 = 30.$ Javobi: C.

32. $\frac{1}{2^{\log_4 x}} = 4$ tenglamaning ildizi 16 dan necha marta kam?

A) 164 B) 172 C) 312 D) 180 E) 256

Yechilishi: $\frac{1}{2^{\log_4 x}} = 4 \Rightarrow \frac{1}{2^{\frac{1}{2}\log_2 x}} = 4 \Rightarrow \frac{1}{\sqrt{x}} = 4 \Rightarrow$

$\Rightarrow 1 = 4\sqrt{x} \Rightarrow x = \frac{1}{16} \Rightarrow 16 : \frac{1}{16} = 256.$

Javobi: E.

33. $\log_{3x^2+5}(9x^4 + 27x^2 + 28) > 2$ tengsizlikning butun yechimini toping.

A) 1 B) 2 C) -1 D) 0 E) 3

Yechilishi: $\log_{3x^2+5}(9x^4 + 27x^2 + 28) > 2$

x ning har qanday qiymatida logarifmning aniqlanish sohasi talablari o‘rinli

$9x^4 + 27x^2 + 28 > (3x^2 + 5)^2$

$9x^4 + 27x^2 + 28 > 9x^4 + 30x^2 + 25$

$3x^2 < 3 => x^2 < 1 => |x| < 1 =>$
$=> -1 < x < 1 => x = 0.$ Javobi: D.

34. a ning qanday qiymatida $2^{4x} \cdot 4^a = 32$ va $3^x \cdot 3^a = 27$ tenglamalarning ildizlari bir-biriga teng bo‘ladi?

A) 2,5 B) 3 C) 3,5 D) 1,5 E) 2

Yechilishi: $\begin{cases} 2^{4x} \cdot 4^a = 32 \\ 3^x \cdot 3^a = 27 \end{cases} => \begin{cases} 2^{4x} \cdot 2^{2a} = 2^5 \\ 3^x \cdot 3^a = 3^3 \end{cases} =>$

$=> \begin{cases} 2^{4x+2a} = 2^5 \\ 3^{x+a} = 3^3 \end{cases} => \begin{cases} 4x + 2a = 5 \\ x + a = 3 \end{cases} =>$

$=> \begin{cases} x = \frac{5-2a}{4} \\ x = 3 - a \end{cases} => \frac{5-2a}{4} = 3 - a =>$

$=> 5 - 2a = 12 - 4a => a = 3{,}5.$ Javobi: C.

35. $\left(\frac{1}{2}\right)^{20-2x} > 1$ tengsizlikning eng kichik butun yechimini toping.

A) 6 B) 11 C) 10 D) 6 E) 8

Yechilishi: $\left(\frac{1}{2}\right)^{20-2x} > 1 => (0{,}5)^{20-2x} > (0{,}5)^0 =>$

$=> 20 - 2x < 0 => 2x > 20 => x > 10 => x = 11.$

Javobi: B.

36. Argumentning nechta butun qiymati $f(x) = \frac{\sqrt{8-x}}{\lg(x-1)}$ funksiyaning aniqlanish sohasiga tegishli?

A) 4 B) 8 C) 7 D) 6 E) 5

Yechilishi: $f(x) = \frac{\sqrt{8-x}}{\lg(x-1)} => \begin{cases} 8 - x \geq 0 \\ \lg(x-1) \neq 0 \end{cases} =>$

$=> \begin{cases} x \leq 8 \\ x - 1 > 0 \\ x \neq 2 \end{cases} => \begin{cases} x \leq 8 \\ x > 1 \\ x \neq 2 \end{cases} => (1; 2) \cup (2; 8]$ 6 $ta.$

Javobi: D.

37. a ning qanday qiym,atlarida $\log_a \sin x = 1$ tenglama yechimga ega?

A) $a \in [-1;1]$ B) $a \in (-1;1)$

C) $a \in (0;1]$ D) $a \in (0;1)$ E) $a \in [0;1)$

Yechilishi: $\log_a \sin x = 1 =>$

1) $\begin{cases} a > 0 \\ a \neq 1 \\ \sin x > 0 \end{cases} => \begin{cases} a > 0 \\ a \neq 1 \\ 0 < x < \pi \end{cases}$

2) $\sin x = a => x = \arcsin a + 2\pi k; \quad a \in (0;1).$

Javobi: D.

38. Quyidagi funksiyalardan qaysi biri toq funksiya?

A) $f(x) = \sin x\, tgx$ B) $f(x) = \cos x\, ctgx$

C) $f(x) = \sin|x|$ D) $f(x) = e^{|x|}$

E) $f(x) = x sin\, x$

Yechilishi: $f(-x) = \cos(-x) \cdot ctg(-x) =$

$= -\cos x\, ctgx.$ Javobi: B.

39. Moddiy nuqta $S(t) = 3t^3 - 3t^2 + 12t(m)$ qonuniyat bo‘yicha harakatlanayapti. Uning tezlanishi 0 ga teng bo‘lgan paytda tezligi necha m/min bo‘ladi?

A) 8 B) 7 C) 9 D) 11 E) 10

Yechilishi: $\boxed{S'(t) = v; v' = 0}$

$S(t) = 3t^3 - 3t^2 + 12t => v = 9t^2 - 6t + 12 =>$

$0 = 18t - 6 => 18t - 6 = 0 => 18t = 6 =>$

$=> t = \frac{1}{3}.$

$v = 9 \cdot \left(\frac{1}{3}\right)^2 - 6 \cdot \frac{1}{3} + 12 = 1 - 2 + 12 = 11.$

Javobi: D.

40. Agar p o‘zgarmas son $(p > 0)$ bo‘lsa, p ning qanday qiymatlarida $f(x) = px - \ln x$ funksiya $(0; 8]$ oraliqda kamayuvchi bo‘ladi?

A) $\frac{1}{4}$ B) $1\frac{1}{6}$ C) $\frac{1}{7}$ D) $\frac{1}{8}$ E) $\frac{3}{5}$

Yechilishi: $f(x) = px - \ln x$;

$x > 0;\ \ p = const;\ \ p > 0;\ \ (0; 8].$

$f'(x) = p - \frac{1}{x} \le 0 => \frac{1}{x} \ge p => x \in (0; 8]$

$p \le \frac{1}{8}$. Javobi: D.

41. Absissasi $x_0 = 3$ bo‘lgan nuqtadan $f(x) = \sqrt{3}\ln x$ funksiyaga o‘tkazilgan urinma OY o‘qi bilan qanday burchak tashkil etadi?

A) $arctg3$ B) $60°$ C) $30°$

D) $arctg2$ E) $90° - arctg2$

Yechilishi: $x_0 = 3;\ \ f(x) = \sqrt{3}\ln x =>$

$=> f'(x) = \sqrt{3} \cdot \frac{1}{x} => f'(x_0) = \frac{\sqrt{3}}{x_0} =>$

$=> |k = f'(x_0) = tg\alpha| =>$

$=> tg\alpha = \frac{\sqrt{3}}{3} => \alpha = 30° => \beta = 60°.$

Javobi: B.

42. $y = 3x^4 - 4x^3$ funksiyaning $[0; 2]$ kesmadagi eng kichik qiymatini toping.

A) 0 B) -16 C) -1 D) 1 E) -12

Yechilishi: $y' = 12x^3 - 12x^2 =>$

$=> 12x^3 - 12x^2 = 0 => 12x^2(x - 1) = 0 =>$

$=> \begin{cases} x = 0 \\ x = 1 \end{cases} => x = 0; 1; 2.$

$x = 0 => y(0) = 0;$

$x = 1 => y(1) = 3 \cdot 1^4 - 4 \cdot 1^3 = -1;$

$x = 2 => y(2) = 3 \cdot 2^4 - 4 \cdot 2^3 = 16$

Javobi: C.

43. $F(x) = \frac{1}{2}x^2 + \cos x + C$ funksiya $y = f(x)$ funksiyaning boshlang‘ich funksiyasi. $y = f(x)$ funksiyaning hosilasini toping.

A) $2\cos^2\frac{x}{2}$ B) $2\sin^2\left(\frac{\pi}{4} - \frac{\pi}{2}\right)$ C) $1 + 2\cos x$

D) $2\sin^2\frac{x}{2}$ E) $1 + 2\sin x$

Yechilishi: $F(x) = \frac{1}{2}x^2 + \cos x + C$

$[F(x)]' = f(x) => f(x) = x - \sin x;\quad y = f(x) =>$

$=> y' = f'(x) => y' = 1 - \cos x = 1 - \cos 2 \cdot \frac{x}{2} =$

$= \sin^2\frac{x}{2} + \cos^2\frac{x}{2} - \cos^2\frac{x}{2} + \sin^2\frac{x}{2} = 2\sin^2\frac{x}{2}.$

Javobi: D.

44. $\int_{\frac{5\pi}{3}}^{\frac{4\pi}{3}} |\sin x| dx$ ni hisoblang.

A) 1,5 B) -2 C) 1 D) -1,5 E) -1

Yechilishi: $\int_{\frac{5\pi}{3}}^{\frac{4\pi}{3}} |\sin x| dx = -\int_{\frac{4\pi}{3}}^{\frac{5\pi}{3}} |\sin x| dx =$

$= -\int_{240^\circ}^{300^\circ} (-\sin x) dx = \int_{240^\circ}^{300^\circ} \sin x\, dx =$

$= -\cos x\,|_{240}^{300} = -[\cos 300^\circ - \cos 240^\circ] =$

$= -[\cos(360 - 60) - \cos(180 + 60)] =$

$= -[\cos 60^\circ + \cos 60^\circ] = -1.$ Javobi: E.

45. Parallelogrammning o‘tkir burchagi uchidan uning shu uchidan o‘tmaydigan yon tomonlariga tushirilgan perpendikulyarlar orasidagi burchak 130° ga teng. Parallelogrammning o‘tkir burchagi toping.

A) 40° B) 45° C) 50°
D) 55° E) 35°



Yechilishi:
$ABCD\ to'rtburchakdan\ \alpha +$
$+2 \cdot 90° + 130° = 360° =>$
$=>\ \alpha = 50°$
Javobi: C.

46. Parallelogrammning 6 ga teng bo‘lgan kichik diaganali uning 8 ga teng bo‘lgan kichik yon tomoniga perpendikulyar. Parallelogrammning katta tomoniga tushurilgan balandligini toping.

A) 4,2 B) 4,4 C) 4,6
D) 4 E) 4,8



Yechilishi: Misr uchburchagiga asosan c=10. $h = \frac{a \cdot b}{c} =$
$= \frac{6 \cdot 8}{10} = 4{,}8.$ Javobi: E.

47. Teng yonli trapetsiyaning yon tomoni va kichik asosi 5 ga, balandligi 4 ga teng. Trapetsiyaning yuzi 12 dan qancha ko‘p?

A) 19 B) 22 C) 20
D) 7 E) 12



Yechilishi: Misr uchburchagidan x=3
$S = \frac{a+b}{2} \cdot h = 32 => 32 - 12 = 20.$
Javobi: C.

48. Muntazam $ABCDEF$ oltiburchakning tomoni 6 ga teng. C uchidan AE diagonalgacha bo‘lgan masofani toping.



A) 8 B) 9 C) 10 D) 7 E) 12

Yechilishi: $6\alpha = 180°(6-2) => \alpha = 120°$

$AE^2 = AF^2 + FE^2 - 2 \cdot AF \cdot FE \cos 120° = 6^2 + 6^2 -$

$-2 \cdot 6 \cdot 6 \cdot \left(-\frac{1}{2}\right) = 108 => AE = = \sqrt{108}.$

$h^2 = CE^2 - \left(\frac{AE}{2}\right)^2 = 108 - 27 = = 81 => h = 9.$

Javobi: B.

49. Rombning tomoni 4 ga, yuzi 9 ga teng. Rombning diagonallari yig‘indisini toping.



A) 12 B) 11 C) 10

D) 9,5 E) 11,5

Yechilishi: $\begin{cases} S = \frac{1}{2} d_1 d_2 \\ d_1^2 + d_2^2 = 4a^2 \end{cases} =>$

$=> \begin{cases} 9 = \frac{1}{2} d_1 d_2 \\ d_1^2 + d_2^2 = 4 \cdot 4^2 \end{cases} => \begin{cases} d_1 d_2 = 18/2 \\ d_1^2 + d_2^2 = 64 \end{cases} =>$

$=> \begin{cases} 2d_1 d_2 = 36 \\ + \\ d_1^2 + d_2^2 = 64 \end{cases} => (d_1 + d_2)^2 = 100 =>$

$=> d_1 + d_2 = 10.$ Javobi: C.

50. Teng yonli uchburchakning uchidagi burchagi 2α ga, unga tashqi chizilgan aylananing radiusi R ga teng. Uchburchakning yuzi nimaga teng?

A) $R^2 \sin 2\alpha \cos \alpha$ B) $2R^2 \cos \alpha \sin^2 \alpha$

C) $R^2 \sin^2 2\alpha$ D) $4R^2 \cos^3 \alpha \sin \alpha$ E) $2R^2 \cos^2 \alpha$

Yechilishi:



1) $S_{\triangle} = \frac{1}{2} l^2 \sin 2\alpha$;

2) $\frac{a}{2} : l = \sin \alpha \Rightarrow a = 2l \sin \alpha$;

3) $R = \frac{abc}{4S} = \frac{l \cdot l \cdot 2l \sin \alpha}{4 \cdot \frac{1}{2} e^2 \sin 2\alpha} = \frac{l}{2 \cos \alpha} \Rightarrow l = \ = 2R \cos \alpha.$

4) $S_{\triangle} = \frac{1}{2} (2R \cos \alpha)^2 \cdot 2 \sin \alpha \cos \alpha = 4R^2 \cos^3 \alpha \sin \alpha.$

Javobi: D.

51. AB kesma α tekislikdan 2 va 4 ga teng masofada joylashgan. Kesmaning tekislikdagi proeksiyasi 6 ga teng. Kesma va tekislik orasidagi burchakni toping.

A) 45° B) 60° C) $arctg \frac{1}{3}$ D) 30° E) $\arcsin \frac{3}{5}$

Yechilishi: $\frac{2}{6} = tg\varphi \Rightarrow tg\varphi = \frac{1}{3} \Rightarrow\Rightarrow \varphi = arctg \frac{1}{3}$.

Javobi: C.

52. $A(1;0;1); B(-1;1;2)$ va $C(0;2;-1)$ nuqtalar berilgan. Koordinatalar boshi O nuqtada joylashgan. Agar $\overrightarrow{AB} + \overrightarrow{CD} = \vec{0}$ bo‘lsa, $\overrightarrow{OD}$ vektorning uzunligini toping.



A) 4 B) 2 C) 9

D) 3 E) 6

Yechilishi: $A(1;0;1); B(-1;1;2); C(0;2;-1); D(x;y;z)$

1) $\overrightarrow{AB} = \{-1-1; 1-0; 2-1\} = \{-2; 1; 1\}$

2) $\overrightarrow{AB} + \overrightarrow{CD} = \vec{O} \Rightarrow \{-2;1;1\} + \{x; y-2; z+1\} =$

$= \{0;0;0\} \Rightarrow \{-2+x; 1+y-2; 1+z+1\} =$

$= \{0;0;0\} \Rightarrow \{x-2; y-1; z+2\} = \{0;0;0\} \Rightarrow$

$$=> \begin{cases} x-2=0 \\ y-1=0 \\ z+2=0 \end{cases} => \begin{cases} x=2 \\ y=1 \\ z=-2 \end{cases} => D(2;1;-2).$$

3) $\overrightarrow{OD} = \{2;1;-2\} => \left|\overrightarrow{OD}\right| = \sqrt{9} = 3.$ Javobi: D.

53. Parallelepiped ostki asosining diagonali va ustki asosining unga qarama qarshi uchi orqali tekislik o‘tkazilgan. Bu tekislik parallelepipedni ikkita jismga ajratadi. Shu jismlardan biri piramidadan iborat. Parallelepiped hajmining piramida hajmiga nisbatini toping.

A) 5: 1 B) 6: 1 C) 3: 1

D) 4: 1 E) 9: 1



Yechilishi:

1) $V_{p.ped} = S_{asos} \cdot H;$

2) $V_{pir} = \frac{1}{3} \cdot \frac{S_{asos}}{2} \cdot H;$

3) $V_{p.ped} : V_{pir} = S_{asos} \cdot H \cdot \frac{6}{S_{asos} \cdot H} = 6:1.$ Javobi: B.

54. Tomonlari 2 va 4 ga teng bo‘lgan to‘g‘ri to‘rtburchak o‘zining katta tomoni atrofida aylanadi. Hosil bo‘lgan jismning to‘la sirtini toping.

A) 22π B) 23π C) 24π

D) 20π E) 18π



Yechilishi: $S_T = S_{yon} + 2S_{asos}.$

$S_{yon} = 2\pi R \cdot H = 2\pi \cdot 2 \cdot 4 = 16\pi.$

$S_{asos} = \pi R^2 = 4\pi.$

$S_T = 16\pi + 2 \cdot 4\pi = 24\pi.$ Javobi: C.

55. Radiusi 5 ga teng bo‘lgan sharga ichki chizilgan konusning balandligi 4 ga teng. Konusning hajmini toping.

A) 28π B) 18π C) 24π

D) 32π E) 16π



Yechilishi: $DB^2 = 5^2 - 1^2 = 24 =>$

$=> DB = 2\sqrt{6}$

$V_k = \frac{1}{3}\pi R^2 H = \frac{1}{3}\pi \cdot 24 \cdot 4 = 32\pi.$

Javobi: D.

56. Silindrning yon sirti yonilganda, uning diagonali asos tekisligi bilan $45°$ burchak tashkil qiladi. Silindrning yon sirti $144\pi^2$ ga teng. Silindr asosining radiusini toping.

A) 5 B) 4 C) 6 D) 8 E) 7

Yechilishi:

1) $2\pi RH = 144\pi^2$;

2) $\frac{H}{2\pi R} = tg45° => H = 2\pi R$;

3) $2\pi R \cdot 2\pi R = 144\pi^2 => R^2 =$

$= \frac{144}{4} = 36 => R = 6.$



Javobi: C.

1999-YIL, 3-AXBOROTNOMA

1. $\frac{0,2(4)\cdot 4\frac{1}{11}+2\frac{1}{4}:1\frac{4}{5}}{1,125+(2\frac{2}{3})^{-1}}$ ni hisoblang.

A) 1 B) 1,5 C) 1,25 D) 2,5 E) $\frac{2}{3}$

Yechilishi: $\frac{0,2(4)\cdot 4\frac{1}{11}+2\frac{1}{4}:1\frac{4}{5}}{1,125+(2\frac{2}{3})^{-1}}=\frac{\frac{24-2}{90}\cdot\frac{45}{11}+\frac{9}{4}\cdot\frac{5}{9}}{1,125+\frac{3}{8}}=\frac{\frac{11}{45}\cdot\frac{45}{11}+\frac{5}{4}}{1,125+0,375}=$

$=\frac{1+\frac{5}{4}}{1,5}=\frac{2,25}{1,5}=1,5.$ Javobi: B.

2. $1-3+5-7+9-11\ldots+97-99$ ni hisoblang.

A) -46 B) -48 C) -50 D) -52 E) -54

Yechilishi: $1-3+5-7+9-11\ldots+97-99 =>$

$=> 1+5+\cdots+97-(3+7+\cdots+99);$

$a_n=a_1+d(n-1);$

1) $a_1=1;\ d=4 => 97=1+4(n-1) => n=25;$

2) $a_1=3; d=4 => 99=3+4(n-1) => n=25;$

$S_1=\frac{1+97}{2}\cdot 25=49\cdot 25;\ S_2=\frac{3+99}{2}\cdot 25=51\cdot 25.$

$S=S_1-S_2=25(49-51)=-50.$ Javobi: C.

3. 200 ni 30% ga orttirildi, hosil bo‘lgan son 20% ga kamaytirildi. Natijada qanday son hosil bo‘ldi?

A) 206 B) 210 C) 208 D) 212 E) 205

Yechilishi: $200\cdot 1,3\cdot 0,8=208.$ Javobi: C.

4. Qaysi ifodaning qiymati ratsional sondan iborat?

1) $(1-\sqrt{2})(1+\sqrt{2});$ 2) $1+2\sqrt{7};$

3) $\frac{0,5}{1-\sqrt{0,5}}-\sqrt{0,5};$ 4) $(1+\sqrt{5})^2-(1-\sqrt{5})^2.$

A) 1;2 B) 1;3 C) 1;4 D) 1 E) 3;4

Yechilishi: 1) $1-2=-1.$

3) $\frac{0,5}{1-\sqrt{0,5}} - \sqrt{0,5} = \frac{0,5-\sqrt{0,5}+0,5}{1-\sqrt{0,5}} = 1.$ Javobi: B.

5. 36455478354 ni 2,4,5,9,10 va 25 ga bo‘lganda hosil bo‘lgan qoldiqlar yig‘indisini toping.

A) 18 B) 16 C) 15 D) 14 E) 12

Yechilishi: 36455478354 raqamlar yig‘indisi : 54.

$36455478354 = 36455478300 + 54$

$54:4 = 13\ (2q);\quad 54:5 = 10(4q);\quad 54:10 = 5(4q)$

$54:25 = 2(4q).\ \ 2 + 3 \cdot 4 = 14.$ Javobi: D.

6. 4^{12} ni 9 ga bo‘lganda, qoldiq necha bo‘ladi?

A) 1 B) 2 C) 4 D) 7 E) 8

Yechilishi: Har qanday son tarkibidan bo‘luvchiga karrali sonni ajratib olish mumkin:

$(mk + r)^n = lk + r^n$ bo‘ladi.

$(mk + r)^n$ ni k ga bo‘lgandagi qoldiq, r^n ni k ga bo‘lgandagi qoldiqqa teng bo‘ladi.

$4^{12} = (4^3)^4 = (9 \cdot 7 + 1)^4 = 9m + 1.$ Javobi: A.

7. Quyidagi sonli ketma-ketliklardan qaysilari tub sonlardan iborat?

1) 0,3,5,7,11;
2) 1,3,5,7,13;
3) 3,5,7,9,11;
4) 2,3,5,7,17;
5) 3,5,17,19,381.

A) 1;2 B) 2;4 C) 5 D) 3 E) 4

Yechilishi: 4) 2, 3, 5, 7, 17. Javobi: E.

8. Proporsiyaning dastlabki uchta hadi yig‘indisi 28 ga teng. Uning ikkinchi hadi birinchi hadining $\frac{1}{2}$ qismini, uchinchi hadi esa $\frac{2}{3}$ qismini tashkil etadi. Proporsiyaning oxirgi hadini toping.

A) $4\frac{1}{13}$ B) $4\frac{2}{13}$ C) $4\frac{3}{13}$ D) $4\frac{4}{13}$ E) $4\frac{5}{13}$

Yechilishi: $a, \frac{1}{2}a, \frac{2}{3}a \Rightarrow a + \frac{a}{2} + \frac{2}{3}a = 28 \Rightarrow$

$\Rightarrow 6a + 3a + 4a = 28 \cdot 6 \Rightarrow 13a = 28 \cdot 6 \Rightarrow$

$\Rightarrow a = \frac{28 \cdot 6}{13}; \frac{1}{2}a = \frac{1}{2} \cdot \frac{28 \cdot 6}{13} = \frac{28 \cdot 3}{13}.$

$\frac{2}{3}a = \frac{2}{3} \cdot \frac{28 \cdot 6}{13} = \frac{28 \cdot 4}{13}.$

$2) \frac{2}{3} \cdot \frac{1}{2}a = \frac{2}{3} \cdot \frac{28 \cdot 3}{13} = \frac{56}{13} = 4\frac{4}{13}.$ Javobi: D.

9. Yo‘lovchilar poyezdining 3 soatda yurgan masofasi yuk poyezdining 4 soatda yurgan masofasidan 10 km ortiq. Yuk poyezdining tezligi yo‘lovchilar poyezdining tezligidan 20 km kam. Yuk poyezdining tezligini toping.

A) 40 B) 45 C) 48 D) 50 E) 52

Yechilishi: $vt = S$.

$3v = 4(v - 20) + 10 \Rightarrow 3v = 4v - 80 + 10 \Rightarrow$

$\Rightarrow v = 70\,km/s \Rightarrow v - 20 = 50.$ Javobi: D.

10. a ning qanday qiymatlarida $2ax + 3y = 3$ va $4x + 3y = 7$ to‘g‘ri chiziqlar kesishish nuqtasining absessasi manfiy bo‘ladi?

A) $a < 3$ B) $a > 3$ C) $a < 2$ D) $a > 2$ E) $a > 1$

Yechilishi: $\begin{array}{r} 2ax + 3y = 3 \\ \underline{-\ 4x + 3y = 7} \\ 2ax - 4x = -4 \end{array} \Rightarrow 4x - 2ax = 4 \Rightarrow$

$\Rightarrow (4 - 2a)x = 4 \Rightarrow x = \frac{4}{4-2a} \Rightarrow \begin{cases} x < 0 \\ \frac{4}{4-2a} < 0 \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} 4 > 0 \\ 4 - 2a < 0 \end{cases} \Rightarrow a > 2.$ Javobi: D.

11. a ning qanday qiymatlarida $9x^2 - 12x + 35a$ parabola absissalar o‘qi bilan ikkita umumiy nuqataga ega bo‘ladi?

A) $a = \frac{4}{35}$ B) $a < \frac{4}{35}$ C) $a > \frac{4}{35}$

D) $a < \frac{18}{35}$ E) $a > \frac{18}{35}$

Yechilishi: $y = 9x^2 - 12x + 35a > 0 =>$
$=> b^2 - 4ac > 0 => (-12)^2 - 4 \cdot 9 \cdot 35a =>$
$=> 36 \cdot 35a < 144 => a < \frac{144}{36 \cdot 35} => a < \frac{4}{35}$.
Javobi: B.

12. n ning qanday qiymatlarida $4x^2 - 3nx + 36 = 0$ tenglama ikkita manfiy ildizga ega?

A) $|n| \geq 8$ B) $n \leq -8$ C) $n < 8$
D) $n < -8$ E) $n > 8$

Yechilishi: $4x^2 - 3nx + 36 = 0;$
$D > 0, b > 0, c > 0$ *da ikkala ildiz* "$-$".
1) $D > 0 => (-3n)^2 - 4 \cdot 4 \cdot 36 > 0 =>$
$=> 9n^2 > 16 \cdot 36 => |n| > 8 =>$ $\begin{cases} n > 8; \\ n < -8. \end{cases}$
2) $b > 0$ *ni e'tiborga olsak* $n < -8$. Javobi: D.

13. $\frac{x+2-x^2}{x^3+1} \geq 0$ tengsizlikni yeching.

A) $(-\infty; 2]$ B) $[2; \infty)$ C) $(-\infty; -1) \cup (-1; 2]$
D) $(-1; 2)$ E) $(-\infty; -1) \cup (-1; 2)$

Yechilishi: $\frac{x+2-x^2}{x^3+1} \geq 0 =>$
$=> \begin{cases} \frac{x^2-x-2}{x^3+1} \leq 0 \\ x \neq -1 \end{cases} => \begin{cases} \frac{(x+1)(x-2)}{x^3+1} \leq 0 \\ x \neq -1 \end{cases}$



$(-\infty; -1) \cup (-1; 2]$.
Javobi: C.

14. Agar $\sqrt[5]{25 + \sqrt{x + 13}} - 2 = 0$ bo'lsa, $\sqrt{x} + \frac{x}{3}$ ning qiymatini toping.

A) 18 B) 20 C) $10\sqrt{2}$ D) $14\sqrt{2}$ E) $15\sqrt{2}$

Yechilishi: $\sqrt[5]{25 + \sqrt{x + 13}} - 2 = 0 =>$

$\Rightarrow \sqrt{x+13} = 32-25 \Rightarrow x+13 = 49 \Rightarrow$
$\Rightarrow x = 36 \Rightarrow \sqrt{x} + \frac{x}{3} = 18$. Javobi: A.

15. $\frac{5^{-\log_{\sqrt{5}} \sqrt[4]{3}}}{9^{1+\log_{0,5} 2}}$ ni hisoblang.

A) $\frac{\sqrt{3}}{9}$ B) $\frac{\sqrt{3}}{3}$ C) $\frac{\sqrt[4]{27}}{9}$ D) $\frac{\sqrt[4]{3}}{3}$ E) $\frac{1}{3}$

Yechilishi: $\frac{5^{-\log_{\sqrt{5}} \sqrt[4]{3}}}{9^{1+\log_{0,5} 2}} = \frac{5^{-\log_{5^{\frac{1}{2}}} 3^{\frac{1}{4}}}}{9 \cdot 9^{\log_{\frac{1}{2}} 2}} = \frac{5^{-2 \cdot \frac{1}{4} \log_5 3}}{9 \cdot 9^{-\log_2 2}} =$

$= \frac{5^{\log_5 3^{-\frac{1}{2}}}}{9 \cdot 9^{-1}} = \frac{3^{-\frac{1}{2}}}{9 \cdot \frac{1}{9}} = \frac{1}{\sqrt{3}} = \frac{\sqrt{3}}{3}$. Javobi: B.

16. $x^2 - ax + a - 1 = 0$ tenglamaning ildizlari x_1 va x_2 bo‘lsin. a ning qanday qiymatida $x_1^2 + x_2^2$ yig‘indi eng kichik qiymatga ega?

A) 1 B) 2 C) 1,5 D) 2,5 E) 3

Yechilishi: $x^2 - ax + a - 1 = 0 \Rightarrow p = -a; q = a - 1.$

$\begin{cases} x_1 + x_2 = a \\ x_1 \cdot x_2 = a - 1 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x_1^2 + x_2^2 + 2x_1 \cdot x_2 = a^2 \\ x_1 \cdot x_2 = a - 1 \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow x_1^2 + x_2^2 + 2(a-1) = a^2 \Rightarrow$
$\Rightarrow x_1^2 + x_2^2 = a^2 - 2a + 2 \Rightarrow$
$\Rightarrow x_1^2 + x_2^2 = a^2 - 2a + 1 + 1 \Rightarrow$
$\Rightarrow x_1^2 + x_2^2 = (a-1)^2 + 1 \Rightarrow$
$\Rightarrow (a-1)^2 \geq 0 \Rightarrow a - 1 = 0 \Rightarrow a = 1.$
Javobi: A.

17. $\log_2 \log_{\frac{1}{3}} \log_5 x > 0$ tengsizlikni yeching.

A) $(0; \infty)$ B) $(-\infty; \sqrt[3]{5})$ C) $(-\infty; 0) \cup (\sqrt[3]{5}; \infty)$
D) $(0; \sqrt[3]{5})$ E) $(1; \sqrt[3]{5})$

Yechilishi: $\log_2 \log_{\frac{1}{3}} \log_5 x > 0$. 1) $x > 0$.

2) $\log_{\frac{1}{3}} \log_5 x > 2^0 \Rightarrow \log_{\frac{1}{3}} \log_5 x > \log_{\frac{1}{3}} \frac{1}{3} \Rightarrow$

$\Rightarrow 0 < \frac{1}{3} < 1 \Rightarrow \log_5 x < \frac{1}{3} \Rightarrow x < 5^{\frac{1}{3}} \Rightarrow$

$\Rightarrow x < \sqrt[3]{5}$.

1) va 2) dan $\left(0; \sqrt[3]{5}\right)$. Javobi: D.

18. Agar $3^{5x+1} + 3^{5x-1} = 30$ bo‘lsa, $\frac{x}{x+1}$ ning qiymatini hisoblang.

A) $\frac{2}{3}$ B) $\frac{1}{3}$ C) $\frac{2}{7}$ D) $\frac{4}{9}$ E) $\frac{2}{3}$

Yechilishi: $3^{5x+1} + 3^{5x-1} = 30 \Rightarrow$

$\Rightarrow 3^{5x}(3 + 3^{-1}) = 30 \Rightarrow 3^{5x} \cdot \frac{9+1}{3} = 30 \Rightarrow$

$\Rightarrow 3^{5x} = 3^2 \Rightarrow x = \frac{2}{5} \Rightarrow x = 0{,}4$.

$\frac{x}{x+1} = \frac{0{,}4}{1{,}4} = \frac{2}{7}$. Javobi: C.

19. $2 \cdot 3^x + \frac{7}{3^x} < 61 \cdot 3^{-x}$ tengsizlikning eng katta butun yechimini toping.

A) 2 B) -2 C) 1 D) 4 E) 0

Yechilishi: $2 \cdot 3^x + \frac{7}{3^x} < 61 \cdot 3^{-x} \Rightarrow$

$\Rightarrow 2 \cdot 3^{2x} + 7 < 61 \Rightarrow 3^{2x} < 3^3 \Rightarrow 2x < 3 \Rightarrow$

$\Rightarrow x < 1{,}5$. $x = 1$. Javobi: C.

20. $\lg\sqrt{x-5} + \lg\sqrt{2x-3} + 1 = \lg 30$ tenglamani yeching.

A) $\frac{1}{2}$ B) 6 C) $\frac{1}{2}; 6$ D) $\frac{1}{2}; 8$ E) 8

Yechilishi: $\lg\sqrt{x-5} + \lg\sqrt{2x-3} + 1 = \lg 30 \Rightarrow$

1) $x > 5$.

2) $\lg\sqrt{x-5} + \lg\sqrt{2x-3} = \lg 30 - \lg 10 \Rightarrow$

$\Rightarrow \lg\sqrt{x-5} \cdot \sqrt{2x-3} = \lg 3$

$\sqrt{x-5} \cdot \sqrt{2x-3} = 3 \Rightarrow (x-5)(2x-3) = 9 \Rightarrow$

$\Rightarrow 2x^2 - 3x - 10x + 15 = 9 \Rightarrow$

$\Rightarrow 2x^2 - 13x + 6 = 0 \Rightarrow x_1 = 0{,}5;\ x_2 = 6. \Rightarrow$
$\Rightarrow x = 6.$ Javobi: B.

21. $\log_4(x+12) \cdot \log_x 2 = 1$ tenglamani yeching.

A) 4 B) -3 C) 2 D) 4; 2 E) -3; 4

Yechilishi: $\log_4(x+12) \cdot \log_x 2 = 1 \Rightarrow$

1) $\begin{cases} x + 12 > 0 \Rightarrow x > -12; \\ x \neq 1; \\ x > 0. \end{cases}$

2) $\frac{1}{2}\log_2(x+12) \cdot \frac{1}{\log_2 x} = 1 \Rightarrow$

$\log_2 \sqrt{x+12} = \log_2 x \Rightarrow \sqrt{x+12} = x \Rightarrow$

$\Rightarrow x^2 - x - 12 = 0 \Rightarrow \begin{cases} x_1 = -3 \\ x_2 = 4 \end{cases} \Rightarrow x = 4.$

Javobi: A.

22. Agar $a_2 + a_4 + a_6 + \cdots + a_{2n} = 126$ va $a_{n-2} + a_{n+4} = 42$ bo‘lsa, $a_1, a_2, \ldots a_{2n}$ arifmetik progressiyaning hadlar sonini toping.

A) 6 B) 8 C) 10 D) 16 E) 12

Yechilishi: $a_2 + a_4 + a_6 + \cdots + a_{2n} = 126;$

$a_{n-2} + a_{n+4} = 42 \boxed{Ikkala\ tenglikda\ n = 4\ desak} \Rightarrow =$
$> a_2 + a_{2n} = 42 \Rightarrow$

$\Rightarrow S_n = \frac{a_2 + a_{2n}}{2} \cdot n \Rightarrow 126 = \frac{42}{2} \cdot n \Rightarrow n = 6.$

2-usul: $\begin{array}{l} a_{n-2} = a_1 + d(n-3) \\ + \\ a_{n+4} = a_1 + d(n+3) \Rightarrow a_1 + dn = 21. \\ \hline 42 = 2(a_1 + dn) \end{array}$

$126 = \frac{a_1 + d + a_1 + d(2n-1)}{2} \cdot n \Rightarrow (a_1 + dn) \cdot n = 126 \Rightarrow$
$= 21 \cdot n = 126 \Rightarrow n = 6.$ Javobi: A.

23. 5 ga bo‘lganda qoldiq 1 chiqadigan datslabki 20 ta sonning yig‘indisini toping.

A) 950 B) 1070 C) 1090 D) 1030 E) 1100

Yechilishi: 6, 11, 16, 21,…,101.

$a_{20} = 6 + 5(20 - 1) = 6 + 5 \cdot 19 = 6 + 95 = 101;$
$S_{20} = \frac{6+101}{2} \cdot 20 = 1070.$ Javobi: B.

24. Geometrik progressiya barcha hadlarining yig‘indisi uning toq nomerli hadlari yig‘indisidan uch marta ko‘p. Agar geometrik progressiya hadlarining soni juft bo‘lsa, uning maxrajini toping.

A) 3 B) $\frac{3}{2}$ C) $\frac{5}{2}$ D) 2 E) 3

Yechilishi: $S_n = S_t + S_j;\ \ S_j = qS_t;\ \ S_n = 3S_t;$
$3S_t = S_t + S_j \Rightarrow\ S_j = 2S_t \Rightarrow 2S_t = qS_t \Rightarrow$
$\Rightarrow q = 2$
Javobi: D.

25. 5 ta haddan iborat geometrik progressiyaning hadlari yig‘indisi, birinchi hadini hisobga olmaganda 30 ga, oxirgisini hisobga olmaganda 15 ga teng. Shu progressiyaning uchinchi hadini toping.

A) 6 B) 8 C) 4 D) 10 E) 12

Yechilishi: 1) $\begin{array}{r} b_2 + b_3 + b_4 + b_5 = 30 \\ - \ b_1 + b_2 + b_3 + b_4 = 15 \Rightarrow \\ \hline b_5 - b_1 = 15 \end{array}$

$\Rightarrow b_5 - b_1 = 15 \Rightarrow b_1 q^4 - b_1 = 15 \Rightarrow b_1 = \frac{15}{q^4-1}.$

2) $S_4 = \frac{b_1(q^4-1)}{q-1} = \frac{15}{q^4-1} \cdot \frac{q^4-1}{q-1} = \frac{15}{q-1};$

$\frac{15}{q-1} = 15 \Rightarrow 15 = 15(q-1) \Rightarrow 1 = q - 1 \Rightarrow q = 2.$

3) $b_3 = b_1 q^2 = \frac{15}{2^4-1} \cdot 2^2 = 4.$ Javobi: C.

26. $y = \frac{1}{\ln(1-x)} + \sqrt{x+2}$ funksiyaning aniqlanish sohasini toping.

A) $[-2; \infty)$ B) $[-2; 1]$ C) $(-\infty; 1)$

D) $[-2;0)\cup(0;1)$ E) $(-\infty;-2)\cup(-2;1]$

Yechilishi: $y=\frac{1}{\ln(1-x)}+\sqrt{x+2}$;

$$\begin{cases}1-x>0\\1-x\neq 1\\x+2\geq 0\end{cases}\Rightarrow\begin{cases}x<1\\x\neq 0\\x\geq -2\end{cases}\Rightarrow[-2;0)\cup(0;1).$$

Javobi: D.

27. $y_1=\frac{a^x+a^{-x}}{2}$; $y_2=\frac{a^x+1}{a^x-1}$; $y_3=\frac{x}{a^x-1}$ va $y_4=x\frac{a^x-1}{a^x+1}$ funksiyalardan qaysilari juft funksiya?

A) y_1 B) y_2 C) $y_1;y_2$ D) $y_1;y_3$ E) $y_1;y_4$

Yechilishi: $y_1(-x)=\frac{a^{-x}+a^x}{2}\Rightarrow y_1=\frac{a^x+a^{-x}}{2}$;

$$y_4(-x)=-x\frac{a^{-x}-1}{a^{-x}+1}=-x\cdot\frac{\frac{1}{a^x}-1}{\frac{1}{a^x}+1}=-x\cdot\frac{\frac{1-a^x}{a^x}}{\frac{1+a^x}{a^x}}=$$

$$=-x\cdot\frac{1-a^x}{1+a^x}=x\cdot\frac{a^x-1}{a^x+1}.$$

Javobi: E.

28. $y=\sqrt{3x^2-4x+5}$ funksiyaning qiymatlar sohasini toping.

A) $[0;\infty)$ B) $[\sqrt{3};\infty)$ C) $[\sqrt{\frac{3}{2}};\infty)$ D) $[\sqrt{\frac{11}{3}};\infty)$

E) $To'g'ri\ javob\ berilmagan.$

Yechilishi: $y=\sqrt{3x^2-4x+5}\Rightarrow$

$$\Rightarrow 3x^2-4x+5\geq 0\Rightarrow y=\sqrt{-\frac{(-4)^2-4\cdot3\cdot5}{4\cdot3}}=$$

$$=\sqrt{-\frac{16-60}{12}}=\sqrt{\frac{11}{3}}\Rightarrow\left[\sqrt{\frac{11}{3}};+\infty\right).$$ Javobi: D.

29. $y=\frac{x-1}{2-3x}$ funksiyaga teskari funksiyani toping.

A) $y=\frac{2-3x}{x-1}$ B) $y=-\frac{2-3x}{x-1}$ C) $y=\frac{2-3x}{1-x}$

D) $y=\frac{2x+1}{3x+1}$ E) $y=\frac{3x+1}{2x+1}$

Yechilishi: $y = \frac{x-1}{2-3x} => 2y - 3xy = x - 1 =>$
$=> x + 3xy = 2y + 1 => x(1 + 3y) = 2y + 1 =>$
$=> x = \frac{2y+1}{3y+1} => y = \frac{2x+1}{3x+1}$. Javobi: D.

30. $y = \arcsin\frac{x-3}{2} - \lg(4 - x)$ funksiyaning aniqlanish sohasini toping.

A) $[1; 4]$ B) $[1; 5]$ C) $(1; 4)$
D) $[1; 4)$ E) $[1; 4) \cup (4; 5]$

Yechilishi: $y = \arcsin\frac{x-3}{2} - \lg(4 - x)$

1) $-\frac{\pi}{2} \le \arcsin\frac{x-3}{2} \le \frac{\pi}{2} => \sin\left(-\frac{\pi}{2}\right) \le \le \sin arc\sin\frac{x-3}{2} \le$
$\sin\frac{\pi}{2} => -1 \le \frac{x-3}{2} \le 1 =>$
$=> -2 \le x - 3 \le 2 => -2 + 3 \le x \le 2 + 3 =>$
$=> 1 \le x \le 5.$

2) $4 - x > 0 => x < 4. [1; 4).$ Javobi: D.

31. $y = 2\sin\frac{\pi x}{3} + 3\cos\frac{\pi x}{4} - tg\frac{\pi x}{2}$ funksiyaning eng kichik musbat davrini toping.

A) 12 B) 12π C) 2π D) 24π E) 24

Yechilishi: $2\pi:\frac{\pi}{3} = 6;\ 2\pi:\frac{\pi}{4} = 8;\ \pi:\frac{\pi}{2} = 2.\ Karralisi\ 24$

Javobi: E.

32. $\sin^6\alpha + \cos^6\alpha + \frac{3}{4}\sin^2 2\alpha$ ni soddalashtiring.

A) 1 B) -1 C) $\sin^2\alpha$ D) $\cos^2\alpha$
E) $To'g'ri\ javob\ berilmagan.$

Yechilishi: $\sin^6\alpha + \cos^6\alpha + \frac{3}{4}\sin^2 2\alpha =$
$= (\cos^2\alpha)^3 + (\sin^2\alpha)^3 + \frac{3}{4}\sin^2 2\alpha =$
$= (\cos^2\alpha + \sin^2\alpha)(\cos^4\alpha - \cos^2\alpha\sin^2\alpha + \sin^4\alpha) +$
$+ \frac{3}{4}\sin^2 2\alpha = \cos^4\alpha - 2\cos^2\alpha\sin^2\alpha + \sin^4\alpha +$

$+\cos^2\alpha\sin^2\alpha+\frac{3}{4}\sin^2 2\alpha=(\cos^2\alpha-\sin^2\alpha)^2+$

$+\left(\frac{1}{2}\cdot 2\sin\alpha\cos\alpha\right)^2+\frac{3}{4}\sin^2 2\alpha=cos^2 2\alpha+$

$+\frac{1}{4}\sin^2 2\alpha+\frac{3}{4}\sin^2 2\alpha=1.$

Javobi: A.

33. $450°<\alpha<540°$ va $ctg\alpha=-\frac{7}{24}$ bo‘lsa, $cos\frac{\alpha}{2}$ ni hisoblang.

A) 0,6 B) $\frac{4}{5}$ C) $-\frac{4}{5}$ D) $-0{,}6$ E) 0,96

Yechilishi: $ctg\alpha=-\frac{7}{24}\Rightarrow\frac{1}{tg\alpha}=\frac{7}{24}\Rightarrow tg\alpha=-\frac{24}{7}\Rightarrow$

$\Rightarrow\alpha=-arctg\frac{24}{7}.$

$\text{Cos}\frac{\alpha}{2}=\cos\frac{1}{2}\cdot\left(-arctg\frac{24}{7}\right)=\cos\left(-\frac{1}{2}arctg\frac{24}{7}\right)=$

$=\cos\frac{1}{2}arctg\frac{24}{7}=-\sqrt{\frac{1}{2}(1+\cos arctg\frac{24}{7})}=$

$=-\sqrt{\frac{1}{2}(1+\frac{1}{\sqrt{1+\left(\frac{24}{7}\right)^2}})}=-\sqrt{\frac{1}{2}(1+\frac{1}{\sqrt{1+\frac{576}{49}}})}=$

$=-\sqrt{\frac{1}{2}(1+\sqrt{\frac{49}{625}})}=-\sqrt{\frac{1}{2}(1+\frac{7}{25})}=-\sqrt{\frac{1}{2}\cdot\frac{32}{25}}=-\frac{4}{5}.$

Javobi: C.

34. Agar $0<\alpha<\frac{\pi}{2}$ va $\cos\alpha=\frac{1}{2}\sqrt{2+\sqrt{2}}$ bo‘lsa, α ning qiymatini toping.

A) $\frac{\pi}{12}$ B) $\frac{5}{12}\pi$ C) $\frac{3}{8}\pi$ D) $\frac{\pi}{8}$ E) $\frac{7}{24}\pi$

Yechilishi: $0<\alpha<\frac{\pi}{2}$; $\cos\alpha=\frac{1}{2}\sqrt{2+\sqrt{2}}\Rightarrow$

$\Rightarrow\sqrt{\frac{1}{2}(1+\cos 2\alpha)}=\frac{1}{2}\sqrt{2+\sqrt{2}}\Rightarrow\frac{1}{2}(1+\cos 2\alpha)=$

$= \frac{1}{4}\left(2+\sqrt{2}\right) => 2(1+cos2\alpha) = 2+\sqrt{2} =>$

$=> 2cos2\alpha = \sqrt{2} => cos2\alpha = \frac{\sqrt{2}}{2} =>$

$=> 2\alpha = \pm\frac{\pi}{4} + 2\pi k => \alpha = \pm\frac{\pi}{8} + k\pi => \alpha = \frac{\pi}{8}.$

Javobi: D.

35. $\frac{1-tg\frac{x}{2}}{1-ctg\frac{x}{2}} = 2\sin\frac{x}{2}$ tenglamaning $(180°; 540°)$ intervalga tegishli ildizlari ayirmasining modulini toping.

A) $120°$ B) $135°$ C) $240°$ D) $180°$ E) $360°$

Yechilishi: $\frac{1-tg\frac{x}{2}}{1-ctg\frac{x}{2}} = 2\sin\frac{x}{2}; x \neq \frac{\pi}{2} + 2\pi k;$

1) $\frac{1-\frac{\sin\frac{x}{2}}{\cos\frac{x}{2}}}{1-\frac{\cos\frac{x}{2}}{\sin\frac{x}{2}}} = \frac{\cos\frac{x}{2}-\sin\frac{x}{2}}{\cos\frac{x}{2}} \cdot \frac{\sin\frac{x}{2}}{\sin\frac{x}{2}-\cos\frac{x}{2}} = -\frac{\sin\frac{x}{2}}{\cos\frac{x}{2}};$

2) $-\frac{\sin\frac{x}{2}}{\cos\frac{x}{2}} = 2\sin\frac{x}{2} => 2\sin\frac{x}{2}\cos\frac{x}{2} + \sin\frac{x}{2} = 0 =>$

$=> \sin\frac{x}{2}\left(2\cos\frac{x}{2}+1\right) = 0 => \begin{cases} \sin\frac{x}{2} = 0 \\ \cos\frac{x}{2} = -\frac{1}{2} \end{cases} =>$

$=> \begin{cases} \frac{x}{2} = \pi n \\ \frac{x}{2} = \pm\left(\pi - \frac{\pi}{3}\right) + 2\pi n \end{cases} => \begin{cases} x \neq 2\pi n; \\ x = \pm\frac{4\pi}{3} + 4\pi n. \end{cases}$

$|480° - 240°| = 240°.$ Javobi: C.

36. $\cos\left(\arcsin\frac{40}{41} - \arcsin\frac{4}{5}\right)$ ni hisoblang.

A) $\frac{151}{205}$ B) $-\frac{151}{205}$ C) $\frac{121}{205}$ D) $-\frac{150}{205}$ E) $\frac{187}{205}$

Yechilishi: $\cos\left(\arcsin\frac{40}{41} - \arcsin\frac{4}{5}\right) =$

$= \cos\arcsin\frac{40}{41} \cdot \cos\arcsin\frac{4}{5} + \sin\arcsin\frac{40}{41} \cdot$

$\cdot \sin\arcsin\frac{4}{5} = \sqrt{1-\left(\frac{40}{41}\right)^2}\cdot\sqrt{1-\left(\frac{4}{5}\right)^2}+\frac{40}{41}\cdot\frac{4}{5} =$

$= \sqrt{1-\frac{1600}{1681}}\cdot\sqrt{1-\frac{16}{25}}+\frac{32}{41} = \sqrt{\frac{1681-1600}{1681}}\cdot\sqrt{\frac{25-16}{25}}+$

$+\frac{32}{41} = \frac{9}{41}\cdot\frac{3}{5}+\frac{32}{41} = \frac{27+160}{5\cdot 41} = \frac{187}{205}.$ Javobi: E.

37. $\sin^2 x + \sin^2 2x = 1$ tenglamani yeching.

A) $\frac{\pi}{2}+\pi k, k\in Z$

B) $\frac{\pi}{6}+\frac{\pi}{3}k, k\in Z$

C) $\frac{\pi}{2}+\pi k; \frac{\pi}{12}+\frac{\pi}{6}k, k\in Z$

D) $\frac{\pi}{12}+\frac{\pi}{6}k, k\in Z$

E) $\frac{\pi}{4}+\frac{\pi}{2}k, k\in Z$

Yechilishi:

$\sin^2 x + \sin^2 2x = 1 \Rightarrow \sin^2 x + (\sin 2x)^2 = 1 \Rightarrow$

$\Rightarrow \sin^2 x + (2\sin x\cos x)^2 = 1 \Rightarrow$

$\Rightarrow \sin^2 x + 4\sin^2 x\cos^2 x = 1 \Rightarrow$

$\Rightarrow 1-\cos^2 x + 4\sin^2 x\cos^2 x = 1 \Rightarrow$

$\Rightarrow 4\sin^2 x\cos^2 x - \cos^2 x = 0 \Rightarrow$

$\Rightarrow \cos^2 x(4\sin^2 x - 1) = 0 \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases}\cos^2 x = 0\\ 4\sin^2 x - 1 = 0\end{cases} \Rightarrow \begin{cases}\cos^2 x = 0\\ \sin^2 x = \frac{1}{4}\end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases}\cos x = 0\\ \sin x = \pm\frac{1}{2}\end{cases} \Rightarrow \begin{cases}x = \frac{\pi}{2}+k\pi\\ x = \pm\frac{\pi}{6}+k\pi\end{cases} \Rightarrow x = \frac{\pi}{6}+\frac{\pi}{3}k.$

Javobi: B.

38. $4\cos^2 x - 3 \geq 0$ tengsizlikni yeching.

A) $\left[-\frac{\pi}{3}+2\pi k; \frac{\pi}{3}+2\pi k\right], k\in Z$

B) $\left[-\frac{\pi}{3}+\pi k; \frac{\pi}{3}+\pi k\right], k\in Z$

C) $\left[-\frac{\pi}{6}+\pi k;\frac{\pi}{6}+\pi k\right], k\in Z$

D) $\left[-\frac{\pi}{6}+2\pi k;\frac{\pi}{6}+2\pi k\right], k\in Z$

E) $\left[-\frac{\pi}{12}+\pi k;\frac{\pi}{12}+\pi k\right], k\in Z$

Yechilishi: $4\cos^2 x-3\geq 0 => 4\cos^2 x\geq 3 =>$

$=> \cos^2 x\geq \frac{3}{4} => |\cos x|\geq \frac{\sqrt{3}}{2} => \begin{cases}\cos x\geq \frac{\sqrt{3}}{2}\\ \cos x\leq -\frac{\sqrt{3}}{2}\end{cases}$

$-\frac{\pi}{6}+k\pi\leq x\leq \frac{\pi}{6}+k\pi.$ Javobi: C.

39. $arctg\frac{1}{2}+arctg\frac{1}{3}$ ni hisoblang.

A) $arctg\frac{5}{6}$ B) $\frac{\pi}{4}+\pi k, k\in Z$

C) $\pi-arctg\frac{5}{6}$ D) $arctg\frac{1}{6}$ E) $\frac{\pi}{4}$

Yechilishi: $x=arctg\frac{1}{2}+arctg\frac{1}{3} =>$

$=> tgx=tg\left(arctg\frac{1}{2}+arctg\frac{1}{3}\right)=$

$=\frac{tgarctg\frac{1}{2}+tgarctg\frac{1}{3}}{1-tgarctg\frac{1}{2}\cdot tgarctg\frac{1}{3}}=\frac{\frac{1}{2}+\frac{1}{3}}{1-\frac{1}{2}\cdot\frac{1}{3}}=\frac{\frac{5}{6}}{\frac{5}{6}}=1 => x=\frac{\pi}{4}.$

Javobi: E.

40. $|\vec{a}|=3, \left|\vec{b}\right|=4$ hamda $\vec{a}$ va $\vec{b}$ vektorlar $\frac{\pi}{3}$ ga teng burchak tashkil qiladi. $\vec{c}=3\vec{a}+2\vec{b}$ vektorlarning uzunligini toping.

A) $\sqrt{217}$ B) 12 C) 17 D) $\sqrt{221}$ E) 13

Yechilishi: $|\vec{a}|=3;\ \left|\vec{b}\right|=4;\ \left(\vec{a},\vec{b}\right)=\frac{\pi}{3};$

$\vec{c}=3\vec{a}+2\vec{b} => |\vec{c}|^2=9|\vec{a}|^2+12\vec{a}\vec{b}+4\left|\vec{b}\right|^2=$

$9\cdot 3^2+4\cdot 4^2+12\cdot|\vec{a}|\cdot\left|\vec{b}\right|\cdot\cos\frac{\pi}{3}=$

$=9\cdot 9+4\cdot 16+12\cdot 3\cdot 4\cdot\frac{1}{2}=81+64+72=217.$

$|\vec{c}|=\sqrt{217}.$ Javobi: A.

41. Agar $|\vec{a}| = 3$ va $|\vec{b}| = 5$ bo‘lsa, α ning qanday qiymatlarida $\vec{a} + \alpha\vec{b}$ va $\vec{a} - \alpha\vec{b}$ vektorlar perpendikulyar bo‘ladi?

A) $-\frac{3}{5} < \alpha < \frac{3}{5}$ B) $-\frac{3}{5}$ C) $\frac{3}{5}$ D) $\pm\frac{3}{5}$ E) $\frac{5}{3}$

Yechilishi: $(\vec{a} + \alpha\vec{b}) \cdot (\vec{a} - \alpha\vec{b}) = 0 =>$

$=> |\vec{a}|^2 - \alpha^2|\vec{b}|^2 = 0 => 3^2 - \alpha^2 \cdot 5^2 = 0 =>$

$=> \alpha^2 \cdot 5^2 = 3^2 => |\alpha| = \frac{3}{5} => \alpha = \pm\frac{3}{5}.$

Javobi: D.

42. $\vec{a} = 2\vec{i} + \vec{j}$ va $\vec{b} = -2\vec{j} + \vec{k}$ vektorlarda yasalgan parallelogrammning diagonallari orasidagi burchakni toping.

A) $\arccos\frac{1}{\sqrt{21}}$ B) $\frac{\pi}{6}$ C) $\arccos\frac{2}{\sqrt{21}}$

D) $\frac{\pi}{2}$ E) $\arccos\frac{3}{\sqrt{21}}$

Yechilishi: $\begin{cases} \vec{a} = 2\vec{i} + \vec{j} \\ \vec{b} = -2\vec{j} + \vec{k} \end{cases} => \begin{cases} \vec{a} = \{2; 1; 0\} \\ \vec{b} = \{0; -2; 1\} \end{cases}$

$|\vec{c}| = |[\vec{a} \cdot \vec{b}]| = |\vec{a}| \cdot |\vec{b}| \cdot \sin(\vec{a}\hat{,}\vec{b})$;

$\begin{cases} |\vec{a}| = \sqrt{2^2 + 1^2 + 0^2} = \sqrt{5} \\ |\vec{b}| = \sqrt{0^2 + (-2)^2 + 1^2} = \sqrt{5} \end{cases} => |\vec{a}| = |\vec{b}| => romb.$

Javobi: D.

43. m ning qanday qiymatlarida vektorning $\vec{a} = \{m; m + 1; 2\}$ uzunligi 3 dan kichik bo‘ladi?

A) $-2 < m < 2$ B) $-2 < m < 1$

C) $-1 < m < 3$ D) $-1 < m < 2$

E) $-1 < m < 1$

Yechilishi: $\vec{a} = \{m; m + 1; 2\}$

$|\vec{a}| = \sqrt{m^2 + (m + 1)^2 + 4} =>$

$=> \sqrt{m^2 + (m + 1)^2 + 4} < 3 =>$

$=> m^2 + m^2 + 2m + 1 + 4 < 9 =>$

$\Rightarrow 2m^2 + 2m < 4 \Rightarrow m^2 + m - 2 < 0 \Rightarrow$

$\Rightarrow m_{1,2} = -\frac{1}{2} \pm \sqrt{\frac{1}{4} + 2} = -\frac{1}{2} \pm \frac{3}{2} \Rightarrow \begin{cases} m_1 = -2 \\ m_2 = 1 \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow -2 < m < 1.$ Javobi: B.

44. AB va CD to‘g‘ri chiziqlar O nuqtada kesishadi. AOD va COB burchaklarning yig‘indisi $230°$ ga teng. AOC burchakni toping.

A) $70°$ B) $120°$ C) $65°$
D) $95°$ E) $85°$



Yechilishi: $2y = 230° \Rightarrow$

$\Rightarrow y = 115°;$

$x = 180° - y = \ = 65°$

Javobi: C.

45. To‘g‘ri burchakli uchburchakning katetlaridan biri 6 ga, uning qarshisida yotgan burchagi $\frac{\pi}{6}$ ga teng. Shu uchburchakka tashqi chizilgan doiraning yuzini hisoblang.

A) 6π B) 9π C) 36π D) 144π E) 24π



Yechilishi: $\frac{6}{\sin 30°} = 2R \Rightarrow$

$\Rightarrow R = 6. \quad S = \pi R^2 = 36\pi.$

Javobi: C.

46. ABC uchburchakning AB va AC tomonlarida shunday K va N nuqtalar olinadiki, $AK = \frac{1}{3}AB$ ga va $AN = \frac{2}{3}AC$ ga teng bo‘ldi. ABC uchburchakning yuzi 18 ga teng. AKN uchburchakning yuzini toping.

A) 4 B) 6 C) 9 D) 2 E) 3

Yechilishi: $AK = \frac{1}{3} \cdot AB$;

$AN = \frac{2}{3} \cdot AC$; $S_{\triangle ABC} = 18$;

$S_{\triangle AKN} = ?$



$\frac{S_{\triangle AKN}}{S_{\triangle ABC}} = \frac{AK \cdot AN}{AB \cdot AC} \Rightarrow \frac{S_{\triangle AKN}}{18} = \frac{\frac{1}{3} \cdot AB \cdot \frac{2}{3} \cdot AC}{AB \cdot AC} \Rightarrow$

$\Rightarrow S_{\triangle AKN} = 18 \cdot \frac{2}{9} = 4.$ Javobi: A.

47. Radiusi 13 ga teng bo‘lgan doiraning markazidan 5 ga teng masofada M nuqta olindi. M nuqtadan uzunligi 25 ga teng bo‘lgan AB vatar o‘tkazildi. M nuqta AB vatarni qanday uzunlikdagi kesmalarga ajratgan?

A) 15; 10 B) 16; 9 C) 18; 7 D) 13; 12 E) 17,8

Yechilishi: $x \cdot (25 - x) = 8 \cdot 18 \Rightarrow$

$\Rightarrow 25x - x^2 = 144 = 0 \Rightarrow$

$\Rightarrow x^2 - 25x + 144 = 0$



$x_{1,2} = \frac{25}{2} \pm \sqrt{\frac{625}{4} - 144} =$

$= \frac{25}{2} \pm \sqrt{\frac{625-576}{4}} = \frac{25}{2} \pm \frac{7}{2} \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} x_1 = 9; \\ x_2 = 16. \end{cases}$ Javobi: B.

48. Doiraga tashqi chizilgan teng yonli trapetsiyaning yuzi 18 ga teng. Agar trapetsiyaning asosidagi burchagi $\frac{\pi}{6}$ ga teng bo‘lsa, uning yon tomonini toping.

A) 6 B) 4 C) 8 D) 5 E) 3

Yechilishi: $S = 18.\ l = ?$



$AB + CD = 2l;\ \ DE = \frac{l}{2};$

$S = \frac{AB+CD}{2} \cdot DE =>$

$=> 18 = \frac{2l}{2} \cdot \frac{l}{2} =>$

$=> l^2 = 36 => l = 6.$ Javobi: A.

49. Radiusi 2 ga teng shar konusga ichki chizilgan. Konus yasovchisi va balandligi orasidagi burchak $30°$ ga teng. Konus yon sirtining yuzini toping.

A) 24π B) 4π C) 16π D) 18π E) 20π

Yechilishi: $H = 3r = 6;$



$\frac{H}{l} = \cos 30° =>$

$=> H = \frac{\sqrt{3}}{2} l =>$

$=> l = \frac{12}{\sqrt{3}};\ R = \frac{6}{\sqrt{3}}.$

$S_{yon} = \pi R l = \pi \cdot \frac{12}{\sqrt{3}} \cdot \frac{6}{\sqrt{3}} = 24\pi.$

Javobi: A.

50. Muntazam to‘rtburchakli prizmaning balandligi 3 ga, hajmi 48 ga teng. Pastki va ustki asoslarining qarama-qarshi yon yoqlarda yotuvchi tomonlari orqali tekislik o‘tkazildi. Shu kesimning yuzini toping.

A) 15 B) 20 C) 25 D) 12 E) 8

Yechilishi: $V = 3a^2 =>$



$48 = 3a^2 => a = 4.$

$AB^2 = 4^2 + 3^2 =>$

$=> AB = 5.$

$S_{kesim} = a \cdot AB = 20.$

Javobi: B.

51. $y = e^{-x^2} + \ln\sin 2x + 3$ funksiyaning hosilasini toping.

A) $e^{-x^2} + \frac{1}{\sin 2x}$ B) $2xe^{-x^2} + ctg2x$

C) $-2xe^{-x^2} + ctg2x$ D) $-2xe^{-x^2} + 2ctg2x$

E) $e^{-x^2} + 1/\cos 2x$

Yechilishi: $y = e^{-x^2} + \ln\sin 2x + 3 = \frac{1}{e^{x^2}} + \ln\sin 2x + 3$

$y' = -\frac{e^{x^2}\cdot 2x}{\left(e^{x^2}\right)^2} + \frac{1}{\sin 2x}\cdot(\sin 2x)' + 0 = -\frac{2x}{e^{x^2}} + \frac{\cos 2x}{\sin 2x}\cdot$

$\cdot (2x)' = -2xe^{-x^2} + 2ctg2x.$ Javobi: D.

52. $y = -\frac{1}{\cos 2x} + \cos\frac{\pi}{3}. y' = \left(\frac{\pi}{8}\right)?$

A) $2\sqrt{2} - \frac{\sqrt{3}}{2}$ B) $2\sqrt{2} + \frac{\sqrt{3}}{2}$ C) $2\sqrt{2}$

D) $-2\sqrt{2}$ E) $2\sqrt{2} + \frac{1}{2}$

Yechilishi: $y = -\frac{1}{\cos 2x} + \cos\frac{\pi}{3}$; $y' = \left(\frac{\pi}{8}\right)?$

$y' = -\frac{2\sin 2x}{\cos^2 2x} => y' = -\frac{2\sin\frac{\pi}{4}}{\left(\cos\frac{\pi}{4}\right)^2} = -\frac{2\cdot\frac{\sqrt{2}}{2}}{\left(\frac{\sqrt{2}}{2}\right)^2} =$

$= -\frac{\sqrt{2}}{\frac{2}{4}} = -2\sqrt{2}.$ Javobi: D.

53. $y = x^3 - 3x^2 + 1$ funksiyaning [-1;4] kesmadagi eng katta va eng kichik qiymatlari ayirmasini toping.

A) 20 B) 14 C) 15 D) 18 E) 16

Yechilishi: $y = x^3 - 3x^2 + 1;\ [-1; 4]$

$y' = 3x^2 - 6x => 3x^2 - 6x = 0 => x^2 - 2x = 0 =>$

$=> x(x-2) = 0 => \begin{cases} x_1 = 0 \\ x_2 = 2. \end{cases}$

$y(-1) = (-1)^3 - 3(-1)^2 + 1 = -1 - 3 + 1 = -3.$

$y(0) = 1;\ \ y(2) = 2^3 - 3\cdot 2^2 + 1 = 8 - 12 + 1 = -3;$

$y(4) = 4^3 - 3\cdot 4^2 + 1 = 64 - 48 + 1 = 17.$

$17 - (-3) = 20.$ Javobi: A.

54. $y = x^2 + 1$ egri chiziqqa o‘tkazilgan urinma $y = 2x + 3$ to‘g‘ri chiziqqa parallel. Urinish nuqtasining ordinatasini toping.

A) 0 B) 2 C) 4 D) $\frac{1}{2}$ E) $\frac{1}{4}$

Yechilishi: $y = x^2 + 1 => y' = 2x \quad A(x_0; y_0)$

$u: y = kx + b; u_1: y = 2x + 3 => u // u_1 =>$

1) $k = 2; k = y'(x_0) => k = 2x_0 => 2x_0 = 2 =>$

$=> x_0 = 1.$

2) $y = x^2 + 1 => y_0 = x_0^2 + 1 => y_0 = 2.$ Javobi: B.

55. $f(x) = \frac{(x-1)^2+1}{x-1}$ funksiyaning minimum nuqtasidagi qiymatini toping.

A) -1 B) 2 C) -2 D) 0 E) 1

Yechilishi: $f(x) = \frac{(x-1)^2+1}{x-1} = \frac{x^2-2x+2}{x-1}$

$f'(x) = \frac{(2x-2)(x-1)-(x^2-2x+2)\cdot 1}{(x-1)^2} =$

$= \frac{2x^2-2x-2x+2-x^2+2x-2}{(x-1)^2} = \frac{x^2-2x}{(x-1)^2} = \frac{x(x-2)}{(x-1)^2} => \begin{cases} x = 0 \\ x = 2 \\ x \neq 1 \end{cases}$

$f(2) = \frac{(2-1)^2+1}{2-1} = \frac{1+1}{1} = 2.$ Javobi: B.

56. $f(x) = \frac{1}{4}x^4 - \frac{5}{3}x^3 + 3x^2 + 10$ funksiyaning barcha kamayish oraliqlarini toping.

A) $(2; 3)$ B) $(-\infty; 0]$ va $[2; 3]$ C) $(-\infty; 3)$

D) $(-\infty; 0)$ va $(3; \infty)$ E) $(-\infty; 0)$ va $(2; \infty)$

Yechilishi: $f(x) = \frac{1}{4}x^4 - \frac{5}{3}x^3 + 3x^2 + 10$

$f'(x) = x^3 - 5x^2 + 6x => x(x^2 - 5x + 6) = 0 =>$

$=> \begin{cases} x = 0 \\ x^2 - 5x + 6 = 0 => x_1 = 2; \ x_2 = 3 \end{cases}$

$f'(1) = (-1)^3 - 5(-1)^2 + 6 \cdot (-1) =$
$= -1 - 5 - 6 = -12 < 0; \quad (-\infty; 0] \cup [2; 3].$
Javobi: B.

57. Ikki moddiy nuqta $S_1(t) = 2{,}5t^2 - 6t + 1$ va $S_2(t) = 0{,}5t^2 + 2t - 3$ qonuniyat bo‘yicha harakatlanayapti. Qaysi vaqtda birinchi nuqtaning tezligi ikkinchisinikidan uch marta ko‘p bo‘ladi?

A) 2 B) 3 C) 4 D) 5 E) 6

Yechilishi: $\begin{matrix} v_1 = S_1'(t) = 5t - 6 \\ v_2 = S_2'(t) = t + 2 \end{matrix} => v_1 = 3v_2 =>$
$=> 5t - 6 = 3(t + 2) => 5t - 6 = 3t + 6 =>$
$=> 2t = 12 => t = 6.$ Javobi: E.

58. To‘la sirtining yuzi 24π ga teng silindrning hajmi eng ko‘pi bilan qanchaga teng bo‘lishi mumkin?

A) 16π B) 20π C) 28π D) 18π E) 30π

Yechilishi: $S_T = 2\pi RH + 2\pi R^2 =>$
$=> 2\pi(RH + R^2) = 24\pi => RH + R^2 = 12 =>$
$H = \frac{12 - R^2}{R}; \quad V = \pi R^2 H = \pi R^2 \cdot \frac{12 - R^2}{R} = 12\pi R - \pi R^3;$
$V' = 12\pi - 3\pi R^2 => 3\pi R^2 = 12\pi => R^2 = 4 =>$
$=> R = 2; \quad H = \frac{12 - 4}{2} = 4.$
$V = \pi R^2 H = \pi \cdot 4 \cdot 4 = 16\pi.$ Javobi: A.

59. $f(x) = x + \operatorname{ctg}^2 x$ funksiyaning boshlang‘ich funksiyasini toping.

A) $\frac{x^2}{2} + \frac{1}{3}\operatorname{ctg}^3 x + C$ B) $\frac{x^2}{2} - \frac{1}{3}\operatorname{ctg}^3 x + C$

C) $\frac{x^2}{2} - x - ctgx + C$ D) $\frac{x^2}{2} - x + ctgx + C$

E) $\frac{x^2}{2} + x - ctgx + C$

Yechilishi: $f(x) = x + \operatorname{ctg}^2 x; \quad \operatorname{ctg}^2 x = \frac{1}{\sin^2 x} - 1$

$F(x) = \int \left(x + \frac{1}{\sin^2 x} - 1\right) dx = \frac{x^2}{2} - x - ctgx + C.$

Javobi: C.

60. $f(x) = \frac{4}{(3-2x)^2}$ funksiyaning grafigi $\left(-\frac{1}{2}; \frac{1}{16}\right)$ nuqtadan o‘tuvchi boshlang‘ich funksiyasini toping.

A) $\frac{4}{3-2x} + \frac{9}{16}$ B) $-\frac{4}{3-2x} + \frac{49}{16}$ C) $-\frac{2}{3-2x} + \frac{17}{16}$

D) $\frac{8}{3-2x} + \frac{33}{16}$ E) $\frac{2}{3-2x} - \frac{7}{16}$

Yechilishi: $f(x) = \frac{4}{(3-2x)^2}$; $\left(-\frac{1}{2}; \frac{1}{16}\right)$

$F(x) = 4\int \frac{dx}{(3-2x)^2} = \frac{4}{-2}\int \frac{d(3-2x)}{(3-2x)^2} =$

$= -2\int (3-2x)^{-2} \cdot d(3-2x) = -2 \cdot \frac{(3-2x)^{-2+1}}{-2+1} + C =$

$= -2 \cdot \frac{(3-2x)^{-1}}{-1} + C = 2 \cdot \frac{1}{3-2x} + C \Rightarrow F(x) = \frac{2}{3-2x} + C;$

$\frac{1}{16} = \frac{2}{3-2\cdot(-\frac{1}{2})} + C \Rightarrow c = \frac{1}{16} - \frac{2}{3+1} = \frac{1}{16} - \frac{1}{2} = \frac{1-8}{16} = -\frac{7}{16}$

$F(x) = \frac{2}{3-2x} - \frac{7}{16}$. Javobi: E.

1999-YIL, 4-AXBOROTNOMA

1. Balandligi 10 m bo‘lgan simyog‘ochga shilliqqurt ko‘tarilyapti. Shilliqqurt kunduzi 5 m ko‘tariladi, kechasi esa 4 m pastga tushadi. Necha kundan keyin shilliqqurt simyog‘ochning uchiga chiqadi?

A) 10 B) 9 C) 6 D) 5 E) 7

Yechilishi: $5-4; 6-4; 7-4; 8-4; 9-4; 10.$

Javobi: C.

2. $6\frac{3}{4}\cdot 5\frac{1}{4}-4\frac{5}{8}\cdot 5\frac{3}{8}$ ni hisoblang.

A) $10\frac{19}{64}$ B) $11\frac{27}{64}$ C) $11\frac{9}{64}$ D) $10\frac{39}{64}$ E) $10\frac{37}{64}$

Yechilishi: $6\frac{3}{4}\cdot 5\frac{1}{4}-4\frac{5}{8}\cdot 5\frac{3}{8}=\frac{27}{4}\cdot\frac{21}{4}-\frac{37}{8}\cdot\frac{43}{8}=$

$=\frac{567}{16}-\frac{1591}{64}=\frac{2268-1591}{64}=\frac{677}{64}=10\frac{37}{64}.$

Javobi: E.

3. $\frac{3{,}2\cdot 0{,}027\cdot 0{,}005}{0{,}09\cdot 0{,}0025\cdot 0{,}64}$ ning qiymatini toping.

A) 3 B) 0,3 C) 30 D) 2 E) 0,6

Yechilishi: $\frac{3{,}2\cdot 0{,}027\cdot 0{,}005}{0{,}09\cdot 0{,}0025\cdot 0{,}64}=\frac{320\cdot 270\cdot 5}{9\cdot 25\cdot 640}=3.$ Javobi: A.

4. $2{,}8\cdot\left(2\frac{1}{3}:2{,}8-1\right)+2\frac{4}{5}$ ni hisoblang.

A) 5,6 B) $2\frac{2}{3}$ C) $2\frac{1}{3}$ D) 2,8 E) $3\frac{1}{3}$

Yechilishi: $2{,}8\cdot\left(2\frac{1}{3}:2{,}8-1\right)+2\frac{4}{5}=$

$=\frac{28}{10}\cdot\left(\frac{7}{3}\cdot\frac{10}{28}-1\right)+\frac{14}{5}=\frac{14}{5}\left(\frac{5}{6}-1\right)+\frac{14}{5}=$

$=\frac{14}{5}\left(\frac{5}{6}-1+1\right)=\frac{7}{3}=2\frac{1}{3}.$ Javobi: C.

5. $4\le|x|\le 8$ tengsizlik nechta butun yechimga ega?

A) 12 B) 10 C) 8 D) 6 E) 5

Yechilishi: $4 \le |x| \le 8 => \begin{cases} |x| \ge 4 \\ |x| \le 8 \end{cases} => \begin{cases} x \ge 4 \\ x \le -4 \\ -8 \le x \le 8 \end{cases}$

$[-8; -4] \cup [4; 8]$.

$x = \underbrace{-8, -7, -6, -5, -4; 4,5,6,7,8}_{10\ ta}$. Javobi: B.

6. Agar kasrning surati $6\frac{1}{3}$ marta kamaytirilsa, maxraji esa $4\frac{1}{2}$ marta orttirilsa, u qanday o‘zgaradi?

A) $1\frac{11}{27}$ *marta ortadi*

B) $1\frac{11}{27}$ *marta kamayadi*

C) $28\frac{1}{2}$ *marta ortadi*

D) $28\frac{1}{2}$ *marta kamayadi*

E) $\frac{27}{32}$ *marta kamayadi*

Yechilishi: $\frac{x}{y} => \begin{matrix} 1)\ x : 6\frac{1}{3} = x \cdot \frac{3}{19} = \frac{3x}{19}; \\ 2)\ y \cdot 4\frac{1}{2} = \frac{9y}{2}; \end{matrix}$

3) $\frac{3x}{19} : \frac{9y}{2} = \frac{3x}{19} \cdot \frac{2}{9y} = \frac{2x}{57y}$;

4) $\frac{x}{y} : \frac{2x}{57y} = \frac{x}{y} \cdot \frac{57y}{2x} = \frac{57}{2} = 28\frac{1}{2}$. Javobi: D.

7. $2,5 - 4,3$ ga teskari sonni toping.

A) 0,8 B) 1,8 C) $-\frac{5}{9}$ D) $-1\frac{1}{4}$ E) $\frac{5}{9}$

Yechilishi: $2,5 - 4,3 = -1,8 = -1\frac{8}{10} = -\frac{18}{10} = -\frac{9}{5} =>$

$=> -\frac{5}{9}$. Javobi: C.

8. Reja bo‘yicha ikki sex 230 ta kir yuvish mashinasi ishlab chiqarishi kerak. Birinchi sex reja bo‘yicha ishlab chiqargan mahsulotning $\frac{2}{9}$ qismi, ikkinchi sex reja bo‘yicha ishlab

chiqargan mahsulotning 80% iga teng. Ikkinchi sex reja bo‘yicha qancha mahsulot ishlab chiqargan?

A) 50 B) 60 C) 80 D) 40 E) 72

Yechilishi: $\begin{matrix} I-x \\ II-y \end{matrix} \Rightarrow \begin{cases} x+y=230 \\ \frac{2}{9}x=0{,}8y \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow \begin{cases} x=230-y \\ 2x=7{,}2y \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x=230-y \\ x=3{,}6y \end{cases} \Rightarrow$

$\Rightarrow 3{,}6y=230-y \Rightarrow 4{,}6y=230 \Rightarrow y=50.$

Javob: A.

9. $\left(2x+6\frac{6}{13}\right):3=4\frac{1}{3}$ tenglamani yeching.

A) $3\frac{3}{13}$ B) $3\frac{19}{26}$ C) $3\frac{7}{26}$ D) $4\frac{3}{13}$ E) $4\frac{7}{26}$

Yechilishi: $\left(2x+6\frac{6}{13}\right):3=4\frac{1}{3} \Rightarrow$

$\Rightarrow 2x+\frac{84}{13}=\frac{13}{3}\cdot 3 \Rightarrow 26x+84=169 \Rightarrow$

$\Rightarrow 26x=85 \Rightarrow x=3\frac{7}{26}.$ Javobi: C.

10. $a=\frac{7}{36}, b=\frac{11}{34}, c=\frac{7}{32}$ va $d=\frac{9}{25}$ sonlarni kamayish tartibida joylashtiring.

A) $a>b>c>d$ B) $b>a>d>c$

C) $d>a>b>c$ D) $a>c>b>d$

E) $d>b>c>a$

Yechilishi: $a=\frac{7}{36}=0{,}19(4)$

$b=\frac{11}{34}=0{,}32\ldots$

$c=\frac{7}{32}=0{,}2\ldots$

$d=\frac{9}{25}=0{,}36$ $d>b>c>a.$

Javobi: E.

11. $7\frac{5}{13}\cdot 2-1\frac{2}{5}\cdot 6+4\cdot 2\frac{4}{13}-3\cdot 1\frac{1}{5}$ ni hisoblang.

A) $11\frac{2}{5}$ B) 12 C) 13,5 D) $11\frac{8}{13}$ E) 14

Yechilishi: $7\frac{5}{13}\cdot 2-1\frac{2}{5}\cdot 6+4\cdot 2\frac{4}{13}-3\cdot 1\frac{1}{5}=$

$=\frac{96\cdot 2}{13}-\frac{7\cdot 6}{5}+\frac{4\cdot 30}{13}-\frac{3\cdot 6}{5}=\frac{192+120}{13}-\frac{42+18}{5}=\frac{312}{13}-\frac{60}{5}=$

$=24-12=12.$ Javobi: B.

12. $4{,}5-1{,}6\cdot(5x-3)=1{,}2\cdot(4x-1)-15{,}1$ tenglamani yeching.

A) 20 B) 2 C) 0,2 D) 0,5

E) $To'g'ri\ javob\ keltirilmagan$

Yechilishi:

$4{,}5-1{,}6\cdot(5x-3)=1{,}2\cdot(4x-1)-15{,}1 =>$

$=> 4{,}5-8x+4{,}8=4{,}8x-1{,}2-15{,}1 =>$

$=> 4{,}8x+8x=4{,}5+4{,}8+1{,}2+15{,}1 =>$

$=> 12{,}8x=25{,}6 => x=2.$ Javobi: B.

13. $\frac{4}{9}\cdot\left(4\frac{1}{2}y-1\frac{1}{2}\right)-\frac{2}{7}\cdot\left(1\frac{1}{6}-3\frac{1}{2}y\right)$ ni soddalashtiring.

A) $0{,}2y-1$ B) $2y+1$ C) $3y-1$

D) $\frac{2}{3}y-\frac{1}{3}$ E) $y-1$

Yechilishi: $\frac{4}{9}\cdot\left(4\frac{1}{2}y-1\frac{1}{2}\right)-\frac{2}{7}\cdot\left(1\frac{1}{6}-3\frac{1}{2}y\right)=$

$=\frac{4}{9}\cdot\left(\frac{9}{2}y-\frac{3}{2}\right)-\frac{2}{7}\cdot\left(\frac{7}{6}-\frac{7}{2}y\right)=\frac{4}{9}\cdot\frac{3}{2}(3y-1)-$

$-\frac{2}{7}\cdot\left(\frac{7}{6}-\frac{7}{2}y\right)=\frac{4}{9}\cdot\frac{3}{2}(3y-1)-\frac{2}{7}\cdot\frac{7}{2}\left(\frac{1}{3}-y\right)=$

$=\frac{2}{3}(3y-1)-\frac{1}{3}+y=2y-\frac{2}{3}-\frac{1}{3}+y=3y-1.$

Javobi: C.

14. $\begin{cases}\frac{x+5}{4}-2x\geq 0,\\ x-\frac{2x-8}{5}\geq 1-2x\end{cases}$ tengsizliklar sestimasining eng katta butun yechimini ko‘rtsating.

A) -1 B) 1 C) 2 D) -2 E) 0

Yechilishi: $\begin{cases} \frac{x+5}{4} - 2x \geq 0, \\ x - \frac{2x-8}{5} \geq 1 - 2x \end{cases} =>$

